Kalit so‘zlar: lochira, mashg‘ulot, mahsulot, masalliq, Aqliy hujum.....

Xamir mahsulotlari tayyorlash uchun oliy, birinchi va ikkinchi nav bug‘doy unidan foydalaniladi. Lekin navi bir xil un tarkibidagi oqsilning miqdori va sifati har xil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har xil xamir mahsulotlarini tayyorlashda unning tarkibidagishiraning miqdoriga ahamiyat beriladi. Masalan, qat-qat xamiri uchun kamida 40%, pecheniy xamiri uchun 30–32% shirasi bor unni ishlatish tavsiya etiladi. Unni ishlatishdan avval albatta elanadi, bunda u tashqi moddalardan tozalanadi va havo kislorodiga to‘yinadi. Xamir uchun ishlatiladigan margarin yoki sariyog‘ xona haroratida yumshatiladi, lekin olovda eritilmaydi, chunki bunda ular yog‘ va suyuqlik aralashmalariga ajralib, mahsulotning yomon pishishiga olib keladi. Xamirga ishlatiladigan tuxum iliq suvda yuviladi. Tuxumni ko‘pchitish kerak bo‘lsa, uni +2° gacha sovitiladi.



Amaliy mashg‘ulot . Lochira pishirish.

Amaliy mashg‘ulot uchun zarur bo‘lgan asbob va idishlar: gaz plitasi, chuqur idish, chakich, likopchalar.

Kerakli masalliq: 500 g un, 200 g mol yog‘i (sariyog‘ yoki margarin),
1 ta tuxum, 1 choy qoshiq tuz, 0,5–1 stakan iliq suv (yoki sut), ozgina sedana.

Ish bajarish tartibi:

1. Idishdagi iliq suvga tuz va tuxum solinadi va tuz erigach, yog‘ eritib solinadi.
2. So‘ngra un solib, sal yumshoqroq xamir qoriladi va 20 daqiqa tindirib qo‘yiladi.
3. Kichik zuvalachalarga bo‘linib, 3–4 mm qalinlikda non shaklida yoyiladi.
4. Ichi chuqur tovoqqa solinib, yonboshi chimdilab chiqiladi.
5. Yasalgan yupqa non – lochira ustiga chakich uriladi, tuxum yoki qatiq surtiladi.



6. Yasalغان yupqa non – lochira ustiga qora sedana sepiladi.
7. Pechda +180°C da 20–35 daqiqa pishiriladi va dasturxonga tortiladi.



Lochira pishirish jarayoni.

“Aqliy hujum” usuli.

1. Un qanday mahsulot va u nimalardan olinadi?
2. Unning qanday turlari va navlarini bilasiz?
3. Nima uchun bug‘doy uni yaxshi hisoblanadi?
4. Unning sifatini qanday tekshirish mumkin?

“Yangilik kashf etib o‘rganamiz” usuli. Bu yondoshuv o‘quvchi-larning egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish bilan bir qatorda ularning o‘z-o‘zlarini rag‘batlantirish orqali bilim va ko‘nikmalar to‘plashlariga sharoit yaratadi.

Asosiy tamoyillari quyidagicha:

O‘rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.

O‘rganish jarayoni ma‘lum bir topshiriqqa yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Topshiriq quyidagilarni ta‘minlaydi:

- Tayanch ma‘lumot olish uchun asos;
- O‘quvchi uchun notanish bo‘lgan ma‘lumotga chuqur kirib borishiga undaydigan so‘rovga e‘tibor berish;
- Oldindan aniqlangan va sog‘lom tarzda o‘rganishga asoslangan natijalar.

Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivatsiyasiga asoslangan.

“Yo‘qdan bor” usuli. Ushbu usul ta‘lim oluvchilarning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishini, o‘z – o‘zini tekshiruv malakalarini amaliyotda qo‘llash usulidir. Bu usul vaqti–vaqti bilan o‘tkazib turiladi, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, darslik bilan ishlash va mustaqil amaliy faoliyat bilan shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir o‘quvchi alohida yoki umumiy tarzda tashkil qilinadigan topshiriqni bajaradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga aralashmay, tashqaridan teskari aloqa- muloqot yordamida yo‘naltirib boshqaradi va nazorat qiladi. Bunda o‘quvchilarni tejamkorlikka yo‘naltirish maqsad qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. va boshqalar. «Case-stady» uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba.-T.: Tafakkur qanoti, 2012.-134 b.
2. Internet saytlari:-ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz



DIKSIYA - IFODALI NUTQ ASOSI

Maloxatxon Uraimova
Andijon viloyati Izboskan tumani
7-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq va uning ahamiyati, nutqni o'stiruvchi vosita hamda mashqlar, bu jarayonda o'qituvchilarning tutgan o'rni haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: diksiya, nafasni to'g'ri olish, temp, emotsional ta'sir, pauza va logik urg'u,

Diksiya – lotincha “distio” so'zidan olingan bo'lib, so'zlarni aniq, burro talaffuz qilish degan ma'noni anglatadi. Badiiy asarni ifodali o'qishda nafas va ovoz kabi diksiyaning ham o'ziga xos o'rni bor. Badiiy asar o'qishda, mazmunning qayta hikoya qilishda va umuman, og'zaki nutqda diksiyaning qonun-qoidalariga rioya qilishda, nutqning emotsional ta'siri yana ham oshadi. Diksiya bolaga yoshligidan boshlab o'qitilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu orqali bolada ravon nutq asoslari yaratiladi. Maktabning ilk kunlaridan boshlab diksiyaga katta e'tibor beriladi. Chunki diksiya bolaning nutqini tushunarli, sof, tiniq, jarangdor bo'lishiga erishishdir. O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri nafasni to'g'ri olish (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. Yani bolaga o'qib berilgan hikoya yoki ertakni qayta aytib berilishi so'raladi. Bunda o'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur. Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish (gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi. Bu orqali bolaning nutqini ta'sirchan qilishga erishish mumkin. Masalan: bola nutq jarayonida emotsiya va hissiyotga, nutqning ta'sirchan bo'lishiga harakat qiladi. Bu nutqdagi kelib chiqishi mumkin bo'lgan turli xato va kamchiliklarni oldini olish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchining nutqini o'stirish asosan o'qituvchi pedagogka, uning saviyasiga bog'liq bo'ladi. Dars jarayonida o'qituvchi ta'limning samaradorligini oshirish maqsadida turli usul va uslublardan foydalanishi mumkin. Nutqini o'stirish o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Aynan shu muamoni hal etish uchun quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Baland talaffuzni mashq qilish: Masalan, sara-shira-sara-shira kabi so'zlarni ovozni to'qichqiriqqacha balandlatib, so'ngra esa ovozni to'qivirlashgacha pasaytirib talaffuz qilish.
2. Talaffuz tempini mashq qilish. Shu sara-shira kabi so'zlarni sekin talaffuz qilib, tempni asta tezashtira borish.
3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o'quvchilar qiyinchilik bilan yoki noto'g'ri talaffuz qiladigan so'zlarni qayta talaffuz qilish mashqi.
4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilishni mashq qilish. Buning uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Misol: Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish.

Bolalarni so'zlayotganda to'g'ri nafas olishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish zarur. Ba'zi tortinchoq bolalar tovushni talaffuz qilishga uyaladilar. Bunday vaqtda tovushni, so'zni xor bilan talaffuz qildirish, xor bilan o'qitish, tez aytishlarni xor bilan aytirish foydalidir.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, nutq insonning hayotini ajralmas qismidir. Shunday ekan nutqni shakllantirish va rivojlantirish o'qituvchi pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Shuning uchun ham pedagoglardan talab qilinadigan birgina talab u ham bo'lsa o'z ustida ko'proq ishlash va saviyasini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev “Ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent “NOSIR”a nashriyoti 2009
2. www.ziyouz.com kutubxonasi



HOZIRGI KUNDAGI PEDAGOGIKA TUSHUNCHASI VA PEDAGOGLARIMIZNING “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI”

**Mirzaboyeva O'g'iloy Mirzayodgorbek qizi,
Mamatqulova Dildora Rafiqjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti 3-bosqich talabalari

Telefon: +99890 587 68 04, +99894 447 31 19

mirzaboyeva1999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kundagi pedagoglarimiz, ularning mahoratlari, haqiqiy pedagog qanday bo'lishi kerakligi va jamiyatimizda “Pedagogik texnologiya” tushunchasiga bo'lgan qarashlar haqidagi ma'lumotlarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: pedagog, mahorat, ta'lim-tarbiya, maktab, qobiliyat, vatanparvarlik, pedagogik texnologiya, insonparvarlik, barkamol inson.

Pedagogika yunoncha “*paidagogice*” bo'lib, paidagogos “bola” va “yetaklayman” yani “bola yetaklayman” degan ma'noni bildiradi. Pedagogika ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fandir. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat tarqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyatini muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika inson faoliyatining eng qadimiy turidir. U odam bilan birga paydo bo'lgan va odamning odamligini, uning oila, jamoa hamda jamiyat bo'lib yashashini ta'minlab turgan amaliyotdir. Pedagogika fani tarixiga qaraydigan bo'lsak, o'qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal usullarini izlash doimiy davom etib kelgan. O'qitish – bu jamiyat taraqqiyoti uchun samarali pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darhol ko'rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir. Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishiga qarab farq qilmaydi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatni anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Pedagogikani biz shunchaki fan sifatida qabul qiladigan bo'lsak undagi nizomlarni bajaruvchi esa pedagog hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya – shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida har bir davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz bermay qolmaydi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchi va talaba yoshlarda hurfiylilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mexr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllanadi. Bu fikrlardagi bosh g'oya sabr-bardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxsiy sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi.

Ta'lim metodlari qiziquvchanlikka u darajada erkinlik bera olmaydi. Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tamonlama rivojlantirishga qaratilgan. Shuni uchun ham hozirgi davr talabi bu pedagogik texnologik usullarni yaxshilab o'rganish, undan foydalanish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiya – axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat. Aslini olib qaraganda, pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi raxbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi va albatta kerak bo'lsa, atrofdagilarga ham o'z bilimlarini ya'ni o'rganganlarini ulashadilar. Farg'ona Davlat Universiteti xuddi shunday ta'lim tizimini o'zida amalga oshirib kelayotgan Oliy o'quv yurtlaridan biri desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bizning oliy yurtimizda ham o'quvchilar o'zlarini ustilarida mustaqil ishlaydilar, ustozlardan



olishgan bilimlarini mustaxkamlaydilar. Ya’ni har bir talaba kerak bo’lsa o’zini ustida ishlab auditoriyada o’z tengdoshlariga va albatta kelajakdagi kasbdoshlariga oddiygina qilib aytqanda dars o’tib beradi. Bundan maqsad esa talabani ham ruxan, ham ma’nan va albatta o’zini ustida ishlatib, bilimlarini mustaxkamlatib kelajakdagi egasi bo’ladigan kasblariga tayyorlashdir. Bunday tizim ularni hozir bu o’quv yurtini bitirib bemalol o’quvchilar oldida tik turib, hayajonlanmagan holda dars o’tishlari uchun poydevor bo’lmoqda desam hato bo’lmaydi. Agarda bunday texnologiyalar maktab paytidanoq qo’llanilsa, har bir inson bemalol omma oldida o’z fikrini teran bildiradi oladigan bo’ladilar. Lekin afsuski hammamiz bilamizki, ba’zi joylarda bunday texnologiyalardan hali hamon foydalanishgani yo’q, aksincha eski ta’lim metodikasi bo’yicha dars o’tmoqdalar. Lekin har narsaning ilojisi bo’lgani kabi buni ham ilojisi bor faqat sekin – astalik bilan. Lekin pedagog zo’r texnologiyalardan foydalangani bilan, o’quvchi hayotida ikkinchi tomon tarbiyalovchilari ya’ni ota-onalar ham bor. Xalqimizda bir naql bor; “ Qarsak ikki qo’ldan chiqadi” ya’ni bitta qo’limiz qanchalik harakat qilmasin ikkinchi qo’limiz ham u tomon harakatlanmas ekan bundan hech qanday ovoz chiqmaydi. Pedagog ya’ni ustozlar qanchalik harakat qilishmasin, ularga ota-onalar ham ko’maklashishmas ekan bunday holatda o’quvchilarda har dam hayollik, ikkilanishlar, o’zini-o’zi o’qiyabman deb aldab qo’yishlik holatlari ham kuzatilishi mumkin. Shuning uchun biz e’tiborli bo’lib, Vatanga, jamiyatga foydasi tegadigan fidoyi, yetuk, barkamol, har tomonlama sog’lom, ma’naviyatli farzandlar tarbiyalashimiz kerak. Zero farzanding kelajagi faqatgina sen uchun emas, balki butun yurt uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov. Pedagogika (darslik) Toshkent “Talqin”. 2008. 42-51-b.
2. O’M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov. Pedagogika Toshkent “Talqin”. 2008. 30-38-b.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA MA’NODOSH SO‘ZLARNI O‘RGATISH

Mirzamatova Odinaxon Alimjanovna

Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahar

1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarining ahamiyati va ma’nodosh so‘zlar imlosi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’nodosh so‘z, imlo, tafakkur, emotsional bo‘yoq.

Ma’nodosh so‘zlar talaffuzi, yozilishi har xil bo‘lgan bir umumiy tushuncha (ma’no) ifodalaydigan so‘zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo‘shimcha ma’no qirrasini, emotsional bo‘yoqni, qo‘llanilishi jihatidan o‘zaro farqlanadi. *Katta, ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant* sinonimik qatorini tashkil qilgan so‘zlardan *katta* so‘zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. *Ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, ulkan* so‘zlari hajmi ancha katta bo‘lgan narsalarga, *bahaybat, haybatli* so‘zlari esa o‘lchovi juda katta bo‘lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. *Yirik* kam ishlatiladi. *Gigant* kitobiy uslubga xos bo‘lib, asosan joy, qurilishga nisbatan qo‘llanadi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so‘zlar bilan ishlash juda muhim. Kishi lug‘atida sinonimlar qancha ko‘p bo‘lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi.

Ma’lumki, o‘zbek tili sinonimlarga boy til. «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» da *katta* so‘zining 11 ta, *marta* so‘zining 13 ta sinonimi berilgan.

Boshlang‘ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma’lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi: o‘quvchilar berilgan so‘zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2-3-sinflarda esa berilgan so‘zning 2-3 ta sinonimini topib aytishga o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ma’nodosh so‘zlarga oid quyidagicha mashqlardan foydalanish mumkin:

1. Berilgan ma’nodosh so‘zlarni guruhlash. Bunda bir so‘z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so‘zlar ichiga bir-ikkita boshqa so‘z kiritib beriladi. O‘quvchilar sinonimlarni ikki guruhga ajratib aytadilar. Buning uchun so‘zlar quyidagi kabi berilishi mumkin: *vatan, maqsad, diyor, niyat, mamlakat, murod, yurt*.

2. Berilgan so‘zga sinonim tanlash. O‘qituvchi o‘tini o‘tganda

osmon, sifatni o‘tganda *mazali*, fe’lni o‘tganda *ko‘nikmoq* so‘zlarini aytadi. O‘quvchilar bu so‘zlarga sinonim tanlaydilar: *osmon-ko‘k, samo, falak; mazali - laziz, totli; ko‘nikmoq - o‘rganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq*.

3. Tushirib qoldirilgan sinonim so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, matnni ko‘chirish. Bunda yozilishi kerak bo‘lgan sinonim so‘zlar ro‘yxati tekshirish uchun beriladi. O‘quvchilar sinonimlarni o‘rniga qo‘yib, ularning qo‘llanilishidagi farqni tushuntiradilar.

4. Ma’nodosh so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirish. Buning uchun sinonim so‘zlar qatori qavs ichida beriladi, o‘quvchi gapning mazmuniga mosini tanlab gapni ko‘chiradi: *Daryo suvini (bahor, ko‘klam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (o‘t, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi. Birlashgan (yov, dushman) ni qaytarar*.

5. Sinonim so‘zlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun to‘rtta sinonimik qatordagi so‘zlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi. O‘qituvchishu katakchalardagi bir so‘zni aytadi. Masalan, *chiroyli*. O‘quvchilar shu so‘zga yaqin ma’noli so‘z (sinonim)ni katakchalardan topib aytadilar: *go‘zal, dilbar, sohibjamol, husndor*. Sinonim so‘zlar qatori bilan so‘z birikmasi tuzadilar: *chiroyli shahar, go‘zal manzara, sohibjamol malika* va hok.

Qarama-qarshi, zid ma’no bildiradigan so‘zlar zid ma’noli so‘zlar (zid ma’noli so‘zlarlar) deyiladi. Zid ma’noli so‘zlar belgi bildiradigan so‘zlarda ko‘p uchraydi. Zid ma’nolilik munosabat so‘z bilan frazeologik birlik (ibora) orasida ham bo‘ladi (*yalqov - yuragida o‘ti bor* kabi).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari zid ma’noli so‘zlarlar bilan amaliy tanishtiriladi. Zid ma’noli so‘zlarlar ustida ishlash matndan zid ma’noli so‘zlarni topishdan boshlanadi, keyin maxsus mashqlar ishlatiladi:



1. Berilgan so‘zlarga zid ma’noli so‘zlar tanlash. Otni o‘tganda: *azob* - ..., *do‘stlik* - ..., *oq* - ..., *yoshlik* - ..., sifatni o‘tganda: *dangasa* - ..., *anqov* - ..., *rostgo‘y* - ..., *dono* - ..., *kasal* - ..., fe’lni o‘tganda: *kasallandi* - ..., *yondi* - ..., *boshladi* - ... kabi beriladi. O‘quvchilar berilgan otga *rohat*, *dushmanlik*, *qora*, *qarilik*; sifatga *mehnatkash*, *hushyor*, *yolg‘onchi*, *nodon*, *sog‘*; fe’lga *sog‘aydi*, *o‘chdi*, *tugatdi* zid ma’noli so‘zlarlarini tanlab, jufti bilan yozadilar.

2. Zid ma’noli so‘zlarni qatnashtirib gap tuzish. Bunda o‘qituvchi zid ma’noli so‘zlar tanlab gap tuzish uchun so‘z beradi, o‘quvchilar berilgan so‘zga zid ma’noli so‘zlar tanlaydilar va ularni qatnashtirib gaplar tuzadilar.

3. Berilgan gapga zid ma’noli so‘zlar topib qo‘yish. O‘qituvchi “*To‘g‘ri odam ... so‘zdan or qilur. Yosh kelsa ishga, ... kelsa oshga. Yaxshi gap - moy, ... gap - loy. Gapni oz so‘zla, ishni ... ko‘zla*” kabi gaplar beradi, o‘quvchilar gap mazmuniga mos zid ma’noli so‘zlar topib, gapni o‘qiydilar (yoki yozadilar).

Umuman olganda, o‘quvchilar lug‘atini ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlar bilan boyitish o‘z fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirtojiev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I jild. O‘zMU, T.: 2004.
2. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. “O‘qituvchi”, T.: 1993.



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILAR AQLINI CHARXLOVCHI USULLAR

O‘roqova Dilorom Abduqahhorovna

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani

15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar aqlini charxlovchi usullar yoritilgan bo‘lib, ular darslarda foydalanishga tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik tajriba, taraqqiyot, aql, charx, mezon, usullar...

O‘zbekiston taraqqiyoti uning jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo‘lishi, iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanishi, milliy ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga bog‘liq. Shuning uchun ham “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” xalq tizimi oldiga zamonaviy, milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish uchun asosiy vazifalarni hal etish, avvalo, o‘qituvchining zimmasiga tushadi.


Ta’lim islohotlarining hozirgi bosqichida vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida ilg‘or tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish, ommalashtirish va amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Tabiiyki o‘z ishining ustasi, bilimdoni bo‘lgan yuqori samarali pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llayotgan, individual o‘z ish uslubiga ega, mas’uliyatli mutaxassislar olib borayotgan ishlar ta’lim samaradorligini boyitish, rivojlantirish va yangiliklar bilan ravnaq topishida muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik tajriba amaliy faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi. Uning mazmuni pedagogik bilim, malaka va ko‘nikma, shaxsning shakllanishi bilan belgilanadi. Ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlashda ma’lum mezonlarga asoslanish kerak. Bunda eng muhim mezon- o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llaydigan ta’lim-tarbiyaning ilg‘or shakl va usullaridir. Bu uni oddiy o‘qituvchidan ajratadigan muhim belgi hisoblanadi.

Darslarini tashkil etishda ham matematika, tarbiya kabi fanlardan foydalanish, darslarni integratsion tarzda tashkil etish o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Ushbu usul va o‘yinlardan foydalangan holda boshlang‘ich ta’lim darslarini tashkil etishni tavsiya etaman:

O‘quvchilar bilan «Aql charxi» mashqi o‘tkaziladi.





O‘quvchilar bo‘g‘inlarni ketma-ketlikka mos holda qo‘yib, bo‘g‘inlarni to‘g‘ri joylashtiradilar. Rasmda Alisher Navoiyning xalq uchun binolar qurilishida ishtirok etganligi ko‘rsatiladi. Alisher Navoiy haqida ma’lumot beriladi.

Kataklarda berilgan harflardan xarakter-xususiyatga oid so‘zlar yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Mehribon. Malika juda mehribon

Q	O‘	M	E	H	R
Y	P	O	L	N	I
I	S	A	M	O	B
X	A	K	T	A	R

“Uch haqiqat bir yolg‘on” metodi. Bu usul asosida o‘quvchilarga matn mazmuniga mos tarqatmalar beriladi. Tarqatmadagi yolg‘on ma’lumotni o‘quvchilar aniqlaydilar. Bunda o‘quvchilarning eslab qolish ko‘nikmasi shakllanadi.

- 1 – tarqatma.** a) kichik irmoq ko‘pchilik bilan mehnat qilish maroqli ekanini anglab yetdi;
b) kichik irmoqning suvi bilan daryo yanada kuchliroq bo‘ldi;
c) katta irmoq qumlikning bag‘riga singib, holdan toydi;
d) katta va kichik irmoqlar yo‘l – yo‘lakay qadrdon do‘stlarga aylandi....

Xulosa qilib aytganda, tajribadan aniqlanishicha ta’limning sifati o‘quvchilar bilim darajasining yakuniy natijalari bilan belgilanadi. O‘quvchilar amaliy faoliyatda olgan bilimlarini qo‘llay olishi, tayanch bilimlarini tushingan holda idrok etganlari bilan bog‘liq. Har bir ijodkor o‘qituvchi bu jarayonlarni dadaktik jihatdan to‘g‘ri, unumli uyushtirish orqali ta’limning sifatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’rifat. “O‘rgan-o‘rgat” tadbirlar majmuasi. 2012-yil, 20-oktabr
2. Ma’rifat. 2011-yil, 29-iyun
3. “Yetti sonining xususiyatlari”. “Shofirkon haqiqati” 1996-yil, 20-mart



МАКТАБДА MOLEKULAR BIOLOGIYANI O'QITISHNING AHAMIYATI

Raxmatova Gulmexra Bahtiyor qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
7-maktabning biologiya fani o'qituvchisi
Telefon: +998905008802

Annotatsiya: Molekulyar biologiya - hayotning asosiy xususiyatlari namoyon bo'lishini molekulyar darajada o'rganadigan fan. Molekulyar biologiyani muhim yo'nalishlariga irsiy axborotni amalga oshirish mexanizmlari va hujayraning genetik apparati strukturasi hamda funksional tuzilishini tekshirish

Kalit so'zlar: molekulyar biologiya, molekulyar biokimyo, molekulyar genetika, kristallografiya.

Molekulyar biologiya - hayotning asosiy xususiyatlari namoyon bo'lishini molekulyar darajada o'rganadigan fan. Molekulyar biologiyani muhim yo'nalishlariga irsiy axborotni amalga oshirish mexanizmlari va hujayraning genetik apparati strukturasi hamda funksional tuzilishini tekshirish (molekulyar genetika), viruslarning hujayra bilan o'zaro ta'siri mexanizmlarini o'rganish (molekulyar virusologiya, organizmning immun reaksiyalari qonuniyatlarini aniqlash (molekulyar immunologiya), energiyani hosil bo'lishi va o'zgarishining molekulyar asoslari (molekulyar bioenergetika) va boshqalar kiradi. Molekulyar biologiya hayotiy hodisalarni makromolekulalar, ya'ni oqsil va nuklein kislotalar yoki juda sodda tuzilishga ega bo'lgan xayotiy ob'ektlar — hujayra komponentlari, ya'ni mitoxondriy, xloroplast, ribosoma, yadro, hujayra membranalari, viruslar va prionlar darajasida tekshiradi.

Molekulyar biologiya 20-asrning 50-yillarida biokimyo fanidan ajralib chiqdi va mustaqil fan sifatida shakllandi. Molekulyar biologiya terminini birinchi marta ingliz olimi U. Astberi qo'llagan. Molekulyar biologiyani vujudga kelishi ko'pincha F. Krik va J. Uotson tomonidan 1953 yilda DNK molekulasi gipotetik modelining kashf etilishi bilan bog'lanadi. Bu modelda DNK ning biologik funksiyasi uning kimyoviy tuzilishi bilan bog'liq ekanligi ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, DNK molekulasi o'zida irsiy axborotni saklashi haqidagi dastlabki ma'lumot 1944 yilda O. Everi va uning xodimlari tomonidan aniqlangan. Molekulyarbiologiyani shakllanishida genetika, mikrobiologiya, virusologiya sohasidagi tadqiqotlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga aniq fanlar — fizika, kimyo, matematika, kristallografiya va, ayniqsa, rentgen struktura taxlili bo'yicha erishilgan yutuqlar molekulyar biologiyani rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Molekulyar biologiya sohasidagi kashfiyotlarga ayrim oqsillarning strukturaviy tuzilishi va ular bajaradigan funksiyasi bilan strukturasi o'rtasidagi bog'lanishning aniqlanishi (M. Peruts, J. Kendryu, F. Senger, K. Ani-fensen, Yu. Ovchinnikov va boshqalar); nuklein kislotalar va ribosomalarning tuzilishi hamda biologik funksiyalari mexanizmlarning o'rganilishi (J. Uotson, F. Krik, R. Xolli, N. A. Belozerskiy, A. Bayev), qaytar transkriptaza fermentining kashf etilishi (X. Temin, D. Baltimor), genetik kodning ma'nosi ochib berilishi (M. Nirenberg, S. Ochoa), oqsil biosintezining asosiy bosqichlari (F. Krik, F. Jakob, J. Mono, A. Spirin) va nuklein kislotalarning hosil bo'lish mexanizmlari aniqlanishi (A. Korenberg, S. Ochoa), viruslarning strukturaviy tuzilishi va ular replikasi mexanizmlari hamda genetik muhandislik metodlarining ishlab chiqilishi (P. Berg, V. Arber, G. O. Smit, D. Natane), genning sintezlanishi (X. Korana), prionlarning strukturaviy va funksional xususiyatlari aniqlanishi (S. Prusner), odam genomining to'liq o'rganilishi va embrional o'q hujayralarining kashf etilishi (M. Evane, J. Tompson, J. Bekker) misol bo'la oladi.

O'zbekistonda Molekulyar biologiyani rivojlanishi o'tgan ayerning 60-yillariga to'g'ri keladi. Uning rivojlanishi biokimyo sohasidagi tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liq. Molekulyar biologiya fan sifatida dastlab hozirgi O'zMU ning biokimyo kafedrasida 1966 yildan o'qitila boshlandi (Yo. To'raqulov).

Molekulyar biologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari O'zbekiston FA Biokimyo instituti faoliyati bilan bog'liq. Bu sohada erishilgan yutuklarga olimlarimizdan Y. To'raqulov, A. Ibragimov, T. Soashov, B. Tosh-muhamedov, A. Abdulkarimov, M. Raximov, Sh. Solihov, Sh. Azimova, T. Yusupov, O. Odilova va boshqa katta hissa qo'shgan. Molekulyar biologiya qishloq xo'jaligida (ko'p mahsulot beradigan zotlar va hosildor navlar olish maqsadida hayvon va



o‘simliklarning irsiy apparatni boshqarish va yo‘naltirilgan o‘zgarishlar hosil qilishda), mikrobiologiya sanoati (biologik faol polipeptidlar, oqsillar va aminokislotalarni bakteriyalar yordamida sintezlash)da, tibbiyot turli sohalari (virusologiya, immunologiya)ning nazariy asosi sifatida katta amaliy ahamiyatga ega. Hozirgi davrda molekulyar biologiya oldida xavfli o‘smalar va irsiy kasalliklarning molekulyar muammolarini o‘rganish, ularning oldini olish, katalitik reaksiyalar, gormonlar, zaharli va dorivor moddalar ta’sirining molekulyar mexanizmlarini aniqlash, xotira mexanizmi va nerv jarayonlari tabiatini aniqlash kabi muammolarni hal qilish vazifalari turibdi. Molekulyar biologiya biokimyo, biofizika, bioorganik kimyo va biotexnologiya bilan birga biologiyaning bitta umumiy yo‘nalishi bo‘lgan fizik-kimyoviy biologiyaga kiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. To‘raqulov Yo., Molekulyar biologiya, T., 1994;
2. Spirin A., Molekulyarnaya biologiya, M., 1986;
3. Albertes T. va boshqa, Molekulyarnaya biologiya kletki, M., 1—5 t., 1987;



ТА’ЛИМ ТАРАҚҚИЙОТНИ ТА’МИНЛОВЧИ ОМИЛ СИФАТИДА

Qosimov Dilmurod Adxamjon o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti MKTYQ-1 guruh magistri

Annotatsiya. Maqolada bilim olish va undan foydalanish, axborot texnologiyalaridan vosita sifatida foydalanish, ijtimoiy va kasbiy muloqotga kirishish, funksional savodli bo‘lib, maqsadni tanlash va unga erishish yo‘llarini o‘zlashtirish kabilar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, pedagogik faoliyat, ilm-fan yutuqlari, taraqqiyot, rivojlanish dinamikasi, pedagogik jarayon.

Ta’lim-tarbiya masalasi barcha tarixiy davrda dolzarb sanalib, ilmiy va zamonaviy ahamiyat kasb etib kelgan. Tarixiy ahamiyati shundaki, dunyoning turli hududida yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar, olimu fuзалolar tomonidan inson kamolotini ta’minlashda ta’lim-tarbiya haqida turlicha munosabat bildirganliklarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Masalani zamonaviy-ilmiy ahamiyatini esa ijtimoiy munosabatlarda, jumladan “akmetexnologiya”, “innovatsiyaviy taraqqiyot”, “intellektlashuv”, “intellektual ta’minot”, “intellektual resurs”, “innovatsiyaviy faoliyat”, “xizmat ko‘rsatishda mijozsentrlashtirilgan yondashuv”, “tahliliy faoliyat”, “texnologiyalashuv” kabi tushunchalarni shiddat bilan qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Buni bilimlar tizimi takomillashib, inson va uning hayot tarziga oid bo‘lgan stereotiplarni o‘zgarib borilayotganligi bilan izohlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “...biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik” [1] deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim – tarbiya sohasiga bo‘lgan munosabat pozitiv tomonga o‘zgarib, bu borada ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Yoshlarda qaysi sifat va fazilatlarni shakllantirish muhimligini, jamiyatda turli shakl va ko‘rinishlarda ifodalangan ijtimoiy-madaniy muammo belgilab beradi. Aniqrog‘i, yuzaga kelgan muammoni sababi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillarning mazmunini aniqlanishi natijasida, bu holat boshqa takrorlanmasligini ta’minlash uchun jamiyat ijtimoiy buyurtmachi sifatida ta’lim-tarbiya institutiga bir qator vazifalarni bajarishini belgilab beradi.

Ta’lim-tarbiya taraqqiyotni ta’minlovchi muhim omil hisoblanishi bilan birga, jamiyat hayotini ta’minlash va islohotlarni amalga oshirishda darajalarda (sohaviyligi, tarixiyli kabi belgilari bo‘yicha) ham ishtirok etadi [2.47-51]. Bu o‘z navbatida ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat takomillashuv xususiyati ekanligini ko‘rsatadi va unda ijtimoiy institut sifatida ta’lim dominantlik qiladi.

Ta’lim-tarbiya taraqqiyot poydevori hisoblanib, ishlab chiqarish, fan va texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etilishi natijasida takomillashtirishni taqozo etadi. Takomillashtirish mexanizmini esa ilmiy tadqiqotlarning natijasi belgilab beradi. Ta’limga buyurtma beradigan korxona, turli muassasalar, umuman jamiyat ta’lim institutidan nimalarni kutishini, qanday soha mutaxassisini tayyorlab berishni aniqlash uchun aniq va texnik fan sohalarining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi. Ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar mavzusini belgilashda ularning uzviyligiga, ya’ni har bir fan sohasida bajarilishi mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot, ikkinchi fan sohasida bajariladigan tadqiqotni sohaviy to‘ldirib, yaxlit majmuani vujudga keltirishi uchun xizmat qilishiga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi- <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

2. Манахова И.В. Риски информатизации образования // Ж. Информационная безопасность регионов. 2012, № 2 (11). – С. 47-51.



**TEKNOLOGIYA FANINI O`QITISH METODIKASI PEDAGOGIKA FANINING
TARMOQLARIDAN BIRI SIFATIDA**

Radjabova NargizaMarimovna

Qo'shko'pir tuman 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 858 12 78

nm_radjabova1278@inbox.uz

Matnazarova Guzal Atanazarovna

Hazorasp tumani 20-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (93) 755 57 62

g.atanazarovna_20@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika fanining tarmoqlaridan biri sifatidagi pedagogik jarayon haqida

Kalit so'zlar: Texnologiya, umumtexnika fanlari, texnik, mexanika asoslari, mashinasozlik asoslari, elektrotexnika, elektronika asoslari.

Texnologiya fani ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash o'quv rejasida umumiy ta'lim fanlari va mahsus fanlarda o'qitish nazarda tutilgan. Mahsus fanlarga umumtexnik, texnika va pedagogika fanlari kiradi. Umumtexnika fanlariga texnik mexanika asoslari, mashinasozlik asoslari, elektrotexnika va elektronika asoslari kirib, texnik fanlar bo'yicha bilim egallashga asos bo'ladi. Chizmachilik va chizma geometriya, materialshunoslik, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish asoslari, ishlab chiqarishni tashkil etish va uning ekonomikasi asoslari, elektromantaj ishlari va elektr bilan ishlaydigan maishiy asbob (pribor)lar va boshqa texnik fanlar jumlasiga kiradi.

O'qituvchining psixologik-pedagogik jihatdan tayyorgarligi psixologiya, pedagogika, texnologiya va kasb ta'limi metodikasi, chizmachilik va rasm o'qitish metodikasi, maktab gigiyenasi kabi fanlarni o'rganishda amalga oshadi. Shunday qilib, texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda “Texnologiya fanini o'qitish metodikasi” ixtisoslashtiruvchi fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu fanlar boshqa fanlarni pedagogika, psixologiya va hokazolarni takrorlamaydi, balki ular bilan yaqin bog'lanishda bo'ladi. “Texnologiya fanini o'qitish metodikasi” kursi o'rganish, umumiy ta'lim maktabidagi texnologiya fanining (mehnat tarbiyasi, politexnik ta'lim, kasbga yo'llash va hokazolarning) maqsad va vazifalarini, shu fan bo'yicha o'quv jarayonini tashkiliy prinsiplarini va uning mazmunini anglab olinishi, maktab ustaxonalarida ta'lim tarbiya jarayonini muvoffaqiyatli olib borishda yordam beradigan metodik vositalar sistemasi sifatida o'rganilishi lozim.

“Texnologiya fanini o'qitish metodikasi” alohida roli shuki, o'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ularda mehnatga ongli munosabatni tarkib topishi uchun ob'ektiv qulay sharoit vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchiga yana shu sharoitdan qanday qilib to'la foydalanishni ko'rsatish modulning vazifalaridan biridir.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika fanining tarmog'i sifatida o'z ob'ektlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega. Texnologiya ta'limi jarayoni, shu jarayonning hamma jihatlari; o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodlari, o'quvchilarning bilish faoliyati, o'qitish natijalari va boshqalar o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Pedagogika fanining tarmog'i sifatida texnologiya fanini o'qitish metodikasi oldiga qo'ygan asosiy tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Kuzatish. Kuzatish jarayonida tadqiqotchi o'quv jarayonining borishiga aralashmay, faqat nima sodir bo'layotganini qayd qilib boradi. Tadqiqotchi oldindan kuzatishning maqsadi, vazifasi va metodikasini belgilab oladi. Eksperiment. Eksperiment kuzatishdan farqli ravishda tadqiqotchi tomonidan vujudga keltirilgan jiddiy, aniq sharoitda o'tkaziladi.

Eksperimentda vaziyatni keraklixa takrorlash mumkin. Tajriba avval kichik guruhda, so'ng sinfda, bir necha sinf va maktablarda o'tkaziladi. Natijaning samaradorligi haqida xulosa chiqariladi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish. Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, uni umumiy tahlil qilish o'quv jarayonini samarali tashkil etishga oid tavsiflarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ilg'or tajribani kuzatish, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'quvchilarning



ishlari bilan tanishish va boshqa yo'llar bilan o'rganish mumkin. Ilg'or tajribani o'rganish va tarqatishda pedagogik o'qishlar muhim rol o'ynaydi.

Nazariy tadqiqotlar. Metodikani ishlab chiqishda kuzatish metodlari yoki eksperiment yo'li bilan tadqiq qilib bo'lmaydigan malakalarni xal qilishga ham to'g'ri keladi. Masalan, o'quv materialining mazmunini asoslash amaliyotda to'plangan bilim va malakalarning tegishli kompleksini o'rganishdan boshlanadi. Bu holda tadqiqot analiz metodi bilan o'tkaziladi, ya'ni bilim va malakalarning butun kompleksi ajratiladi. So'ng hamma eksperimentlar ichidan o'quv dasturi mazmuniga kiradiganlari tanlab olinadi. Ya'ni analizga teskari jarayon-sintez sodir bo'ladi. Analiz va sintez nazariy tadqiqot metodlaridandir. Demak, metodika mustaqil tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga boshqa fanlar bilan chambarchas bog'langan holda, hamkorlikni amalga oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
2. Tolipov O'.Q., Barakayev M., Sharipov Sh.S. Kasb ta'limi pedagogikasi. – T.: 2003. - 88 b.
3. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017. - 72 b.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH VA ULARDA NUTQIY MALAKA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Saliyeva Muxlisa Yusupjonovna
Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar
1-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada nutq va uni o'stirish muammolari hamda boshlang'ich ta'limda nutqiy malaka ko'nikmalarini shakllantirish usullari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Nutq, tafakkur, ko'nikma, usul, fikr.

Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. Hadisi shariflarda “Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir” deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og'ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

Tilning lug'at boyligini yetarli darajada bilmasdan turib madaniy nutq tuzish mumkin emas. So'zlarning semantik strukturasi, undagi taraqqiyot, leksik sistemadagi so'zlarning bir-biriga munosabati kabi masalalardan boxabar bo'lmasdan turib, tilning behad boy so'z xazinasidan konkret nutq uchun eng keraklisini tanlash mushkul.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan:

- so'z ustida ishlash;
- so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi»¹.

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalanadi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

¹ И в а н о в П. И. Умумий психология. –Т.: «Ўқитувчи», 1997. 306 - бет



O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. She'r, maqolalarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi.- Samarqand, 1992.
2. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, «O'zbekiston» 1992.
3. Иванов П. И. Умумий психология. –Т.: «Ўқитувчи», 1997. 306 – бет.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI KOMIL INSON G‘OYASI ASOSIDA TARBIYALASH

Sharipova Moxichehra Faxriddinovna

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani

15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi


Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida komil inson g‘oyasi asosida tarbiyalash xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: muammo, komil inson, barkamol avlod, shaxs, mustaqil, taqdimot.

Komil inson g‘oyasining mavjudligi va u bilan bog‘liq amaliyot jamiyat rivojlanish darajasini belgilaydigan mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, biz har qanday jamiyatni unda yashayotgan kishilarning hatti-harakatlariga qarab baholaymiz. Jamiyatning xarakteri, uning komil inson qilib tarbiyalash borasidagi imkoniyatlarida, unga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni erkinlik, mustaqillik komil inson g‘oyasini amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoit yaratadi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy, tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim va ustivor yo‘nalishi etib belgilangan. Zero, barkamol avlod kelajagi uchun qayg‘urmagan xalq, millat va davlatning istiqboli bo‘lmaydi.

Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchidagi MUAMMOLAR

- Ayrim o‘quvchilarda maktabga bormasdan o‘qishdan bo‘yin tovlab yurishlari;
- O‘z imkoniyatlaridan past darajada o‘qishlari;
- Yoshlar o‘rtasida tartibbuzarlik, tamaki chekish, spirtli ichimliklar iste‘mol qilish, giyohvand moddalar qabul qilish holatlari, ommaviy madaniyat niqobi ostidagi g‘ayriinsoniy “madaniyat” ning tahdidi;
- Uyali aloqa telefondan noto‘g‘ri foydalanish;
- O‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar ongiga ta’lim-tarbiya ustivor vazifa ekanligini singdirish;
- O‘quvchi shaxsiga, mustaqil shaxs sifatida qarash, qobiliyati va salohiyatini to‘g‘ri baholay bilish;
- O‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro do‘stona muhitni shakllantirish;
- Ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda bevosita vositachi bo‘lish;



O‘quvchi dars jarayonida darsni o‘zlashtirishi turli xil ko‘rsatkichlarda kuzatilgan. Amerikalik jurnalist “maktab direktori” o‘tkazgan tadqiqotlari natijasida “o‘quvchining darsni o‘zlashtirish piramidasi” ni tuzgan.



Ma'ruza-monolog 5%	O'qish (mustaqil) 10%	Amaliy
Audio-video dars 20%	Taqdimot 30%	
Guruh bo'lib ishlash (kichik guruhlarga bo'linib mavzuni muhokama qilish) 50%		
mashg'ulot 75%		
Turli usullar (o'quvchi bilan o'quvchi muloqoti) 90% ni tashkil etadi.		

“IJOD BEKATI” usuli. Bunda o'quvchilar she'r yodlashga o'rgatiladi.

O'quvchilarning nutqi, so'z boyligi oshadi.

Biz dunyoga kelganimiz yangi,

Biz - barq urib yashnaydigan gul.

A'lo o'qish, zo'r mehnat bilan,

Vatan, shaning biz yaratamiz!

KOMIKS METODI. Ushbu usul ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini ota-onaga hurmat, ularni qadrlashga yordam beradi.



“Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”,- deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. (Shavkat Mirziyoyev)

Yurtboshimizning ushbu so'zlarini har bir ustoz unutmasligi va o'quvchilarni barkamol avlod etib tarbiyalash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Axliddinov, Maktabni boshqarish san'ati. “Fan” nashriyoti 2006
2. Metodik qo'llanmalar.
3. Internet saytlari.



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SO‘Z MA’NOLARI USTIDA ISHLASH

Sidikova Odinaxon Yakubovna
Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahar
7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda so‘z ma’nolari ustida ishlash masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. So‘z ma’nosi, fikr, tafakkur, mashq, nutq.

Jamiyatimizning har bir a’zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o‘z ona tilining sadoqatli sohibi bo‘lmog‘i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo‘lmoqning bosh sharti esa uning tuganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya’ni fikrni mustaqil, ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o‘ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Boshlang‘ich ta’limda so‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamaları ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma’nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma’nosini tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma’noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe’l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So‘zning ma’nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma’nosi tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O‘qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma’nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o‘qish jarayonida so‘z ma’nosini tushuntirishga chek qo‘yish kerak. Agar biror so‘zni matnni o‘qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug‘ilsa, matn mazmunidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmagan holda shu so‘z ma’nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq oborotlari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi.

Metodikada so‘zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o‘quvchilar tushunmaydiganso‘zularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So‘z ma’nosini lug‘atdan va o‘qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bundo o‘quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so‘z ma’nosini mustaqil tushunib olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So‘z ma’nosini shu so‘zning ma’nodoshi yordamida tushuntirish.

Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. So‘zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so‘zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko‘rsatish zarur.

4. Tanish bo‘lmagan so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo‘y so‘zini yolg‘onchi so‘ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalari, tasviriyy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha bilan, ya’ni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so‘zning izohi qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zboshimchalik – o‘z xohishicha ish tutish, ishni o‘zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis – biror hunar egasi; shunqor



– uzoq uchadigan ko‘zi o‘tkir qush; mesh – mol terisidan tikilgan idish; guldon – gul solib qo‘yiladigan idish va boshq.

Ba’zi so‘zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning o‘zida donni o‘radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo‘jalik mashinasi; ekskavator - bir vaqtning o‘zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo‘nadigan joy va hok.

6. So‘zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq – suvsiz joyda o‘sadigan ninasimon tikanli o‘simlik; akula – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning ma’nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o‘quvchilar o‘rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo‘lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Shunday ekan, so‘z ma’nosini tushuntirish ustida ishlash o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 b.
2. Tolipov Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
3. Xodiev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. –T.: TDIU, 2010. – 87 s.
4. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. O‘zMU, T.: 2002.



ТА’ЛИМ ЖАРAYONLARI UCHUN AUDIO RESURSLARNI YARATUVCHI DASTURLAR

Tangirov Xurram Ergashevich

Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi,
(+998936502580, xurram_t@mail.ru)

Murodov Furqat Ziyodulla o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti,
(+998903108353, furqatmurodov7@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonlari uchun audio materiallar yaratuvchi audio muharrirlarning turlari, ularning ishlash funksiyalari, imkoniyatlari haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mobil ilova, internet, audio muharrirlar, elektron resurslar, ma’lumotlar ombori.

Zamonaviy dunyoda odamlar Internetsiz bir kun ham yashay olmaydilar, chunki uning yordamida uydan chiqmasdan juda ko‘p foydali ma’lumotlarni olish, virtual suhbatlashish yoki shunchaki ko‘ngil ochar imkoniyatlardan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda 5,22 milliard kishi mobil telefondan foydalanmoqda - bu dunyo aholisining 66,6 foizi demakdir. 2020 yil yanvaridan boshlab noyob uyali aloqa foydalanuvchilari soni 1,8 foizga (93 million) o‘ydi, mobil aloqalarning umumiy soni 72 millionga (0,9 foiz) oshdi va 2021 yil boshiga kelib 8,02 milliardga yetdi.

2021 yil yanvar oyida dunyo bo‘ylab 4,66 milliard kishi Internetdan foydalangan, bu o‘tgan yilga nisbatan 316 millionga (7,3%) ko‘p. Internetga kirish darajasi hozirda 59,5% ni tashkil qilmoqda.

Hozir dunyoda 4,20 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari mavjud. So‘nggi 12 oy ichida bu ko‘rsatkich 490 millionga o‘ydi, bu o‘tgan yilga nisbatan 13 foizdan oshganligini anglatadi. 2021 yilda ijtimoiy tarmoqlardan dunyo aholisining 53,6% foydalanib kelmoqda.

Internetga asoslangan dasturlar va xizmatlar bugungi kunda hech qachon bo‘lmaganidek, yuqori mashhurlikka erishmoqda. Veb-ilovalar brauzerlardan foydalanuvchi interfeysi sifatida foydalanadi, bu amaliy va oddiy Internet foydalanuvchisi uchun juda qulaydir.

Kundalik turmushda ovozli (audio) ma’lumotlardan keng foydalanamiz. Ya’ni musiqa eshitamiz yoki har xil audio fayllarni tinglashimiz mumkin. Bunday axborotlar aniq bir ssenariy asosida audio tahrirlagichlar yordamida yaratilgandir. Shu singari chet tillarini o‘qitishda, o‘rgatishda yoki o‘qitish jarayonini samarali olib borishda ham ko‘pincha bunday ma’lumotlarga murojaat qilamiz. Chunki audio fayllar yordamida yaratilgan materiallarni qo‘llash, ya’ni elektron resurslardan foydalanish til o‘rganish va til o‘rgatishda, umuman darsni tashkil qilish sifatini oshiradi.

Zamonaviy dunyoda, odamlar allaqachon deyarli har kimning cho‘ntagida audio fayllarni ijro etish funksiyasi bo‘lgan Audio Player yoki telefonga ega bo‘lishiga odatlangan. Ba’zan ovozli yozish vositasi yoki qandaydir musiqiy trek bilan qilingan audioyozuv bo‘lsin, audio faylni qayta ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Masalan, audio yozuvning keraksiz segmentini kesib tashlashingiz yoki qandaydir effekt qo‘shishingiz kerak. Bundan tashqari, ba’zida bitta audio formatni boshqasiga o‘zgartirishga ehtiyoj bor. Buning uchun audio muharrirlari mavjud. Ovoz muharriri ham ish stoli, ham veb-dastur bo‘lishi mumkin.

Audio materiallar bilan ishlashga mo‘ljallangan ilovalarning afzalligi shundaki, uni o‘rnatishga hojat yo‘q. U bilan ishlash uchun faqat Internetga kirish va veb-brauzer kerak. Hozirgi vaqtda mavjud dasturlarni o‘rganish ko‘pincha qiyin, shuning uchun oddiy foydalanuvchi ularni tushunishi juda qiyin. Ushbu odamlar uchun ovozni tahrirlash imkoniyatlari soni emas, foydalanish bo‘yicha qulayligi birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

TwistedWave - bu mutaxassislar va yangi boshlovchi foydalanuvchilar uchun dastur. Ovoz fayllarini qayta ishlash va tahrir qilishni qo‘llab-quvvatlaydigan juda kuchli audio muharriri. TwistedWave ko‘plab audio fayl formatlariga mos keladi, jumladan: MP3, MP4, AAC, m4r, m4a va boshqalar.

File Lab Audio Editor - bu audio materiallarni tahrirlovchi bepul web-ilova hisoblanadi. Uning ishlashi uchun sizga maxsus plugin o‘rnatilgan brauzer kerak. Plugin faqat Windows tizimida ishlaydi. Ushbu audio muharrir turli xil zamonaviy formatdagi audio yozuvlarni tahrirlash va yuklab olish imkonini beradi: MP3, WAV, WMA, M4A, AMR, M4R, AIFF, M4B, OGG, AAC,



FLAC va boshqalar.

HTML5 Audio Editor - bu audio materiallarni tahrirlash uchun bepul web-ilova. Ushbu dastur Flash, Silverlight kabi qo‘shimcha pluginlardan foydalanmaydi. HTML5 Audio Editor dasturi HTML va JavaScript yordamida yozilgan. Ushbu dastur Internet Explorerdan tashqari barcha zamonaviy brauzerlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Sound Forge – Sony ning taniqli bo‘limi Sony Creative Software ning juda kuchli audio muharriri. Ushbu audio muharrir professional va yarim professional foydalanish uchun mo‘ljallangan. Sound Forge yordamida siz ovozli kompozitsiyalarni yuqori sifatli yozib olishingiz va qayta ishlashingiz, ko‘plab effektlar va filtrlarni qo‘llashingiz, raqamli remaster qilishingiz va eski yozuvlarni tozalashingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, audio materiallarni qayta ishlash uchun mo‘ljallangan audio muharrirlar, mobil ilovalar yordamida ovozli, musiqali, audio ma’lumotlarni tahrirlash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Логинов А.С. Разработка WEB приложения для работы с аудиоматериалами. - Санкт-Петербург, 2015 г. – 76 с.
2. <https://www.web-canape.ru> - sayt materiallaridan olindi.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Sound_Forge - sayt materiallaridan olindi.



THE CONCEPT OF UNEMPLOYMENT AND ITS MAIN TYPES

Turakhujaev Zayniddin
“Data Pro” MCHJ Director

Annotation: Unemployment and related problems are the main content of social labor relations in the labor market. The main purpose of studying the problem of unemployment is to expand the country's production by improving employment and to develop measures to further improve the living standards of the population. The following article defines the term unemployment in an economic context and its main types.

Key words: unemployment, labour, retirement, pension, income, minimum wage, recession.

To reduce unemployment in society, the creation of additional jobs, their employment should not lag behind the natural growth of the population. It is known that Uzbekistan is one of the fastest growing countries in the world. The population of the republic annually increases by an average of 550-600 thousand people, and the number of able-bodied people by 250-300 thousand people. This situation, in turn, requires increasing the employment of the population, which in turn requires continuous work to expand production and create new jobs. Otherwise, the decline in living standards of the population may lead to problems associated with an increase in the number of unemployed in the country. From an economic point of view, unemployment is a specific (definite) situation in which the labor force is not provided with a job and, as a result, does not have any legitimate source of income. Typically, 83 countries around the world develop the concept of unemployment in accordance with the requirements of the UN, the International Labor Organization (ILO), the Society for Economic Cooperation and Development. According to the definition of international organizations, “unemployed” means citizens who are unemployed, ready to work or looking for work. If these basic conditions are met, additional conditions will be required for a citizen to be recognized as unemployed in different countries. : For example, in the United States, a person who has not been employed for one week has been employed for the last four weeks (by contacting the employer directly or the state employment service). working, able-bodied citizens are recognized as unemployed. In Japan, an unemployed person is defined as a citizen who has not worked for an hour in the last week, and in the UK, who has not worked for the last week, who has not been able to find a job due to illness. Under the laws of some countries, unemployed are defined as those who have been laid off and have work experience. According to the Law of the Republic of Uzbekistan “On Employment”, an unemployed person is a person who is able to work (from the age of sixteen to the right to a pension), to work and wages (labor). income), are recognized as able-bodied persons registered with the local labor authority as job seekers, ready to work, retrain and retrain and improve their skills.

The following four conditions must be met in order to be recognized as unemployed. The first condition is that the citizen must be able to work and not be entitled to a pension under current legislation. The ability to work legally - the lowest level of the Labor Code! Article 77 - 16 years. It should be noted that in accordance with this article of the Labor Code, in accordance with the relevant conditions, it is allowed to hire young people aged 15 or 14, but they are recognized as able-bodied.

The second condition is that the citizen should not have a job and salary (income). If a citizen has lost his / her main job (for example, he / she has been laid off due to redundancies) but is working in another company on a part-time basis, he / she is considered to be employed. Pensions, alimony, dividends on securities, interest accrued on bank deposits are not included in wages (income). Similarly, pensions and stipends were not included in wages (income), but because retirees were socially protected and those who received scholarships outside of work were considered employed, they were considered unemployed. are not recognized. The third condition is that the citizen must be ready to work. The fact that a citizen is ready to work is confirmed by the fact that he / she officially applies to the local labor body in search of work, re-registers with the labor body within the established period and accepts the acceptable job offered by the labor authorities. Pregnant women are considered able-bodied if their gestational age does not exceed twenty-eight weeks, and they must be recognized as unemployed during this period of pregnancy.

The fourth condition is that the citizen must register with the local labor authority as a job seeker



with the submission of all relevant documents. The general economic nature of unemployment stems from the fact that the labor market itself, the balance between labor demand and its supply, also forms employment, not unemployment. Unemployment, on the one hand, is supposed to be the “reverse” of employment, on the other hand, it feels the influence of factors that are different from the factors that shape employment. Nevertheless, unemployment is always considered in conjunction with employment: an increase in employment, as a rule, reduces unemployment, which in turn increases unemployment, which in turn increases employment. By definition, unemployment is the underemployment of the able-bodied population who want to work. Macroeconomically, unemployment is the fact that society has not always fully used the labor potential of the labor force as a factor of production. In this sense, unemployment is equal to surplus production capacity or unused land and water, but in contrast to the surplus of other factors of production, “surplus” labor is a constant phenomenon in a market economy. Various foreign schools and departments, economists have long been trying to determine the causes of unemployment.

Unemployment rate is measured by two main indicators. The first of these, as mentioned above, is the unemployment rate, which is calculated as the proportion of the total unemployed officially registered in the active population. However, this figure does not give a complete picture of the situation in the field of employment. To accurately determine it, it is necessary to know the number of people who lost their jobs and how long they will be in such a situation. If we multiply the number of unemployed by the number of hours they cancel, we get the true unemployment rate, expressed in hours. It is expedient to classify it to determine the level of unemployment and unemployment. Unemployment can be categorized according to several characteristics (according to the cause of origin, form, content, duration, and occupancy). The sharp decline in employment is rapid enough due to structural changes in the economy (decline in the public sector), inflation and alternative forms of management (private enterprises, joint stock companies). due to the lack of growth in many enterprises combined with the deterioration of the financial situation. All this, of course, had a negative impact on aggregate demand: government influence declined, investment activity slowed, and consumer spending declined due to inflation. The only component of total demand that remained with the “Plus” mark was net exports, traditionally based on the production of raw materials. Thus, the main reason for the growth of unemployment in Uzbekistan was, first of all, the reduction of employment in the public sector of the economy. The relationship between the dynamics of economic growth and unemployment are inextricably linked. As a rule, western economists link economic growth rates to employment growth rates and the recession to unemployment rates. Indeed, in a normally functioning market economy of the industrial type, economic growth always means the development and expansion of industries, and hence an increase in employment. However, in developing countries, such a link is not obvious. For example, the rapid growth of industry in many developing countries has not led to a corresponding expansion of employment. Economists attribute this phenomenon to the rapid growth of the industry, high urbanization rates and low skills of the rural-urban population. The situation in the CIS countries does not confirm a direct link between economic stagnation and declining rates. For example, when industrial production volumes are reduced by almost two times, the number of employed can be reduced by more than 10.0%.

The duration of unemployment is a measure of how long the average period of job search for persons with unemployment status has reached the end of this period. It also takes into account how many of them were employed during this period. This volume is determined by two indicators. The first indicator shows how many months those who are considered unemployed have been unemployed on average. The second indicator reflects how many of those who were unemployed during this period were on average unemployed for several months and found employment. In the analysis of unemployment, its duration is of particular importance. Data on the average duration of unemployment and the contribution of the long-term unemployed among the unemployed allow conclusions to be drawn about relative unemployment. In some cases, the majority of the unemployed can find a new job quickly (within 1-4 months), while others go without finding a job for half a year or more. Unemployment benefits. Unemployment benefits are categorized according to the category of citizens recognized as unemployed: those dismissed from enterprises on any grounds (including those with disabilities of group III and those dismissed from the military, state security and internal affairs) has worked full-time (week) or part-time (week) for at least 12 calendar weeks in the 12 months prior to the onset of unemployment (this is



calculated by converting the next 12 calendar weeks into full-time) , unemployment benefits in the amount of 75% of the average monthly salary for the last two months worked at the next place of employment during the first three months; for the next four months - in the amount of 60%; then 45%, but in all cases unemployment benefits are paid in the amount not less than the minimum wage established by law and not higher than the average wage in the country; Unemployment benefits are paid at the expense of the minimum wage established in the country to those who were fired from enterprises on any grounds, but did not have a paid job for 12 months for 12 months; Unemployment benefits are paid at the expense of the minimum wage to those who are looking for a job for the first time in a long period of time (more than a year), as well as those who seek to resume employment.

Reference

1. President Of The Republic Of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev Received The Address To The Meeting. https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti_Mirziyoyevning-the-Republic-of-Uzbekistan-Supreme-25-01-2020.
2. PF-5953 of the president of the Republic of Uzbekistan on March 2, 2020 “Five priorities of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021 strategy of action on the direction “science, enlightenment and digital state program on implementation in the “year of economic development” on “ decree.
3. Abdurakhmonov Q.X. Labor economics: theory and practice. The textbook. Again and filled 3rd edition. T.: “”, 2019. Fan 552-p.
4. Zakirova N.K., Abdurakhmanova G., Sagidullin F.R. Transformational for International scientific review innovation v. 2020. №LXX. - 24-28.
5. Frey C. B., Osborne M. A. the future of employment: how responsive are jobs to somputerisation. - Oxford Martin Working Papers. – 2018. https://www.oxfordmartin.ox.ac.uk/downloads/academic/The_Future_of_Employment



PEDAGOGIK FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xo'jaqulov Mirkomil Jumayevich

Toshkent davlat transport universiteti

MKTYQ-1 guruh magistri

Telefon: +998(90)0100001

Annotatsiya. Maqolada pedagogik faoliyat samaradorligiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tishning afzalliklariga doir nazariy yondashuvlar keltirilib, ularga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, onlayn ta'lim, axborot, kommunikatsion-texnologiya, media vosita, institsiyallashtirish, xorijiy tajriba.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama ma'rifatli va madaniyatli qilib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ularga oid bo'lgan masalalarning majmuasi yoshlarga oid bo'lgan milliy siyosatimizda o'z aksini topgan. Masalan, “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi qonunda “Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkon boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir”[3].

Taraqqiyotimizning istiqboli, aholi turmush tarzini farovonligini ta'minlash yoshlarning shaxsiy va kasbiy jihatlaridan kamol topishlariga bog'liqdir. Bu o'z navbatida yoshlarimizni biron bir sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib, o'z imkoniyatlarini (aqliy, jismoniy, ijodiy va b.) mamlakatimizda farovon turmush tarzini ta'minlash yo'lida sarflanishini taqozo etadi. Bu birinchi navbatda ularga berilayotgan kasbiy ta'limning mazmuni, sifati hamda raqobatbardoshligiga, ta'limiy ma'lumotlarning dolzarbligiga hamda mehnat bozorining talab va takliflaridan kelib chiqqan holda ularda shaxsiy, kasbiy kompetentlikni shakllanganligini alohida inobatga olishni taqozo etadi.

COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan onlayn ta'lim berish tajribasi, “har qanday jamiyatning ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar har bir o'qituvchidan o'quvchi-talabalardan farqli o'laroq faqatgina media vositalardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'libgina qolmasdan, balki bu vositalar bilan ishlash malakasiga ham ega bo'lishlari lozimligini ko'rsatdi. Bu esa mediata'lim sohasini o'zlashtirishni istovchi o'qituvchilar uchun nisbatan yangi va ancha murakkab muammodir. Shu sababli o'qituvchilar mazkur media vositalar sohasidagi o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishi, o'zi va o'quvchi-talaba o'rtasida yangi media va kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirish bo'yicha bir qator oraliq bo'lishligini ta'minlashlari lozim”[1.12].

Shu boisdan ham o'qituvchilarida erkin, ijodiy fikrlash malakalarini rivojlantirish, ular dars berayotgan sohasiga oid g'oyaviy-mafkuraviy masalalarni anglatish hamda amaliy bilimlarini boyitish, “bu borada jahon tajribalarini umumlashtirish uchun xorijiy mamlakatlarda o'qitilayotgan fanlar tizimini o'rganib chiqish, mentalitetimizga mos keladiganlarini o'zimizning bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimiga moslashtirish zarur, bu fan rivojiga ham, ta'lim-tarbiya natijalariga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi”[2.8] shubhasizdir.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda o'quv jarayonini axborot texnologiyalari, xususan kompyuterlar asosida tashkil qilish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda, chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan mashg'ulot jarayonida foydalanish yuqori ijobiy samara beradi. Xoh gumanitar (tarix, falsafa, adabiyot va sh.k.), xoh tabiiy fanlar (matematika, fizika, kimyo va sh.k.) bo'yicha o'quv jarayonini kompyuter va axborot texnologiyalari asosida tashkillashtirish, bir tomondan o'qituvchini, ikkinchi tomondan – o'quvchini hali barcha imkoniyatlari ochilmagan kuchli vosita bilan qurollantiradi[1.12].

1. Pedagogik faoliyatda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari o'zaro faol munosabatda bo'lishi ta'minlaydi.

2. Pedagogik faoliyatda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim mazmunini yangi texnologiyalar asosida rivojlantirib, interfaol tarzda ta'lim muhiti



rivojlantirish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faolligi rag'batlantirish, ta'lim oluvchilarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar informatsion texnologiyalarga asoslangandagina ta'sirchan va yuqori samaradorlikka erishadi. Ta'lim jarayonida uslubiyatni, jumladan, innovatsion texnologiyalarni va interaktiv uslublarni keng joriy etishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ijobiy natijadorlikka erishish mumkin bo'ldi.

4. Har qanday pedagogik jamoa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, undagi mavjud an'ana va qadriyatlarga tayangan holda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda shart-sharoit omillarini hisobga olish va ro'y beradigan har qanday vaziyatlardan chiqishda (masalan, COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan onlayn ta'lim berish va b.) axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ijobiy natijadorlikka olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurova D.N. Elektron ta'lim tizimida dasturiy-didaktik majmua yaratish muammolari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 54 b.

2. Kalekeyeva T.T. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish. Pedag. fan. bo'y. fal. d-ri (PhD) diss. avtoref. – T., 2019. – 14 b.

3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 2-son, 80-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 102-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son, 287-modda; 51-son, 514-modda; 2008 y., 52-son, 513-modda.




TEKNOLOGIYA DARSLARIDA TIKUV MASHINASINING TARIXI BILAN TANISHTIRISH VA UNI O‘RGATISH USULLARI

Xolova Yayra Qiyomovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-umumiy o‘rta talim maktabi
texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya darslariga o‘quvchi qizlarga tikuv mashinasining tarixi, uni o‘rgatish usullari xususida so‘z boradi. Unda ta’lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, “T”jadval, kashf etmoq, Leonardo da Vinchi, Karl Veyzentel, Angliya, Tomas Sent...




Texnologiya fanining maqsadi o‘quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko‘nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o‘rgatish, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, ushbu fan orqali qizlarda kasb tanlash, ayniqsa, tikuvchilik kasbi bo‘yicha ko‘nikmalar hosil bo‘ladi.

Darslar davomida o‘quvchi-qizlarga dastlab tikuvchilikda qo‘llanadigan tikuv mashinasi haqida ma’lumotlar berilib, ularda ko‘nikma hosil qilish lozim.

Tikuv mashinasining dastlabki ko‘rinishlari Leonardo da Vinchining loyihalarida aks etgan. XVI asr oxirlarida angliyalik Uilyam Li bir ipli zanjirsimon

baxyali to‘qima tikish mashinasini kashf etdi. 1755-yili Karl Veyzentel qo‘lda bajariladigan qaviqlardan nusxa kuchiruvchi tikuv mashinasini yaratadi. Hozirgi paytda ham bir qator firmalarda qo‘lda bajariladigan qaviqlarga o‘xshash baxya hosil qilib tikuvchi mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Bu mashinalar teri mahsulotlari, poyafzal va qo‘lqoplarni tikishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularning ishlash printsiplari K. Veyzentel va T. Sent ixtirolariga asoslangan. 1790-yili Angliyada poyafzal tikadigan mashina uchun Tomas Sentga patent berilgan. Hozirgi vaqtda jahonda tikuv mashinalarini ishlab chiqaruvchi 100 dan ortiq firma va korxonalar mavjud.

Tikuv mashinasida ishlash qoidalari:



1. Mashinani ishga tayyorlash. Mashinaning moylarini artib, tepkisini ko‘tarib, ustki va ostki iplarini o‘tkazib, baxya uzunligi to‘g‘rilab qo‘yiladi.

2. Ishni boshlash. Gazlamani tepki tagiga qo‘yib, nina tushiriladi, ipning oxirini ushlab, tepki tushiriladi va ish boshlanadi.

Ishni bajarish. Belgilangan joydan baxya qator tikish (gazlamani tortish yoki itarish mumkin emas).

Ishni tugatish: Ninani, tepkini ko‘tarib, gazlamani chap qo‘l bilan tortib, ipni

10-15 sm qoldirib uziladi. Tepking tagiga bir bo‘lak gazlama qo‘yib, tepkini tushirib qo‘yiladi. Mashina ninasini ham pastki holatga tushirib qo‘yiladi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar:

Tavsiyalar ish o‘rni bilan amalda tanishish bilan boshlanadi. Mashina ish o‘rni nimalardan iborat bo‘lishini uning qanday tashkil etilishi kerakligini, ishlayotganda qaychi, detallar va boshqa asboblarni qayerda turishini tushuntiradi, mashinaning asosiy mexanizmlari tuzilishini aytib ko‘rsatadi. Mashinada ishlayotanda mehnat xavfsizligi qoidalari to‘g‘risida gapirib beradi. Ishlab chiqarish sanitariyasi va elektr yong‘in xavfsizligi qoidalari rioya qilishni tushuntiradi. Mashina ish o‘rnida to‘g‘ri o‘tirishni ko‘rsatadi. Mashinani ishga tushirish va to‘xtatish tartibini, mashinaga



igna o‘rnatishni, tepkini ko‘tarishni va tushirishni tushuntiradi; tepki tagiga gazlamani qo‘yishni, tepkini tushirishni, baxyaqator yuritishni va tepki tagidan gazlamani chiqarib, parallel chiziqlar bo‘ylab tikishni ko‘rsatadi.


Tikuv mashinasida ishlashdagi sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasi qoidalari. I. Sanitariya-gigiyena qoidalari:

- 1) Ish o‘rniga yorug‘lik old yoki chap tomondan tushishi;
- 2) Mashinani oldida to‘g‘ri, stulni to‘ldirib, boshni sal oldinga egib o‘tirish;
- 3) Stulni ninaning to‘g‘risida turishi; 4) Tikuvchi bilan mashina orasi 10-15 sm bo‘lishi; 5) Oyoqlar taglikka yoki polga to‘la tegib turishi kerak.

1. “Hamkorlik” usuli. Bu usulda o‘quvchilar bir-biriga o‘rgatadi, o‘rganadi, jamoa bo‘lib ishlaydi. Bunda o‘zaro amaliy ishni bir-biriga o‘rgatib, sinfning o‘zlashtirish darajasi yuqori, samarali bo‘lishiga erishibgina qolmay, ahil jamoa bo‘lib shakllanadi.

2. “SWOT-tahlil” metodi asosida guruhlariga vazifa beriladi. Yangi mavzudan kelib chiqib o‘z mustaqil fikrlarini yozishadi.

S-Kuchli tomonlar	W-
O-Imkoniyat	T-xavf-xatar Texnika xavfsizligiga rioya qilish kerak



2. “T”chizmasi usuli. Bunda mavzuning ijobiy, ya‘ni yangilik, yaxshi tomonlari va salbiy tomonlari, xavflilik darajalari so‘raladi. Bunda o‘quvchilarga tikuv mashinasidan foydalanishning ijobiy tomonlari, noto‘g‘ri foydalangandagi salbiy tomonlari yozadilar.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya darslarida bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun turli fanlar bilan bog‘lab o‘tish, interfaol usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Ayupov. Interfaol ta‘lim usullari. T, 2001-yil
2. 6- sinf texnologiya darsligi
3. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, - kitob.uz, -bolajon.uz, - multimediya .uz



ВАЖНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Тажекбаева Зийуархан Кошкарбаевна
РЦППКРНО РК

Кафедра «Методика дошкольного,
начального и специального образования»

Аннотация: Формирование и развитие потенциала применения знаний в реализации знаний путем интеграции реальных мечтаний учащихся и практических услуг в преподавание естественных наук в средних школах.

Ключевые слова: STEAM, инженерия, математика, повседневная жизнь, инженерия, технологии, солнце, земля, луна, погода, времена года.

Важность естественных наук определяется их ролью в развитии науки и техники, промышленности и повседневной жизни. Преподавание естествознания в общеобразовательных школах - это формирование и развитие у учащихся умения применять знания на практике путем обобщения их жизненных представлений и практической деятельности.

Развитие науки и технологий, инженерии, математики и повседневной жизни (подход STEAM) в преподавании естественных наук в общеобразовательных школах является актуальной проблемой в организации учебного процесса.

STEAM направлен на укрепление междисциплинарных связей и практических подходов к общему образованию при обучении студентов на международном уровне в соответствии с современными требованиями. В преподавании естествознания его основные понятия формируются при изучении окружающего мира в начальных классах, естествознании и естественной географии, физике, химии, биологии в старших классах. Включая Солнце, Землю, Луну и ее важность, погоду, времена года, вещи вокруг нас: бытовая техника, школьные принадлежности, одежда, еда, использование газа, бытовые электроприборы, компьютер и его возможности, правила домашней безопасности, тело и вещества, состояние воды, использование термометра, ежедневное наблюдение за погодой, периодическая смена дня и ночи, времена года, и другие концепции.

Еще одним аспектом программы является то, что информация представлена в форме спирали с упором на практическое применение знаний и навыков учащихся. Обучение STEAM - это изучение обучения студентов в классе и внеучебных занятий, демонстрирующее, насколько знания, навыки и компетенции имеют научное значение для повседневной жизни.

Воспитание творческих способностей, ориентированных на дизайн, развитие интереса к созданию инноваций. Международная программа оценки, направленная на развитие логического мышления и практических навыков учащихся в рамках данной учебной программы, с учетом раннего выявления интересов учащихся и развития их талантов, творческих способностей, научных исследований и творческих способностей посредством внедрения инноваций (PISA), TIMSS) проектная работа и супервизия, которая побуждает студентов работать независимо и творчески над заданиями, лабораторными работами и темами, разработанными для работы с соответствующими требованиями для их работы отводится отдельный час. Темы также должны включать практические задания, побуждающие учащихся к самостоятельной работе и творческому мышлению.

Практические занятия включают в себя порядок обучения и наименование оборудования, необходимого для его проведения. Студент проводит эксперимент по заданному заданию и по его результатам пишет заключение. Мастер-класс будет демонстрационным экспериментом с отдельным занятием.

Лабораторная работа включает цель предлагаемой работы, порядок ее выполнения и набор оборудования, необходимого для ее выполнения, исходя из учебного материала. Студент проводит измерения в лаборатории, по результатам заполняет таблицу, рассчитывает, выявляет ошибки и пишет заключение.

Проектных заданий. Перед организацией проекта педагог разрабатывает систему проектных заданий. Учащиеся в классе, индивидуально или в группах, самостоятельно собирают информацию из различных источников (учебники, Интернет), формируют проектное



устройство и проводят исследования по теме в течение определенного периода времени. В ходе проекта студенты будут планировать работу, выполнять ее, делать выводы и делать презентации по результатам работы. Проектная работа способствует развитию исследовательской и творческой деятельности студентов.

Содержание практического задания представлено списком оборудования, относящимся к теме урока, текстом, рисунками, графиками или таблицами, относящимися к теме урока. Учащийся выполняет задания, используя предложенные инструменты, текст, изображения, графики и таблицы, и излагает свои выводы. Практические задания могут быть межучебными или междисциплинарными.

С этим, Практические занятия, лабораторные работы и практические задания, способствующие самостоятельной работе и творческому мышлению, работа с заданиями, отвечающими требованиям международных программ оценивания (PISA, TIMSS), направленные на развитие у студентов логического мышления и практических навыков. Одна из основных задач учителя прививает работу подрастающему поколению. Внутренняя мотивация студента играет важную роль в изучении естественных и экономических наук, понимании состояния природной и социальной среды, понимании экологических и человеческих проблем и принятии решений для их решения.

Литературы:

1. Учебная программа (SCIENCE) для общеобразовательных школ.
2. Естественные науки. Учебник для (2-класс). К.Суяров и.др.



КИЧИК ШАҲАР АҲОЛИСИНИНГ ТУРМУШ ТАРЗИ: ИЖТИМОЙ АМАЛИЁТ ВА ҲАЛ ҚИЛУВЧИ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ОМИЛЛАР

Қаюмов Қ.Н. ЎЗМУ
ижтимоий иш кафедраси
катта ўқитувчиси

Ҳозирги замонавий шаҳар нафақат аҳоли пунктининг бир шакли, балки ижтимоий ривожланиш салоҳиятини шакллантирадиган, такомиллаштирадиган, сақлайдиган ва амалга оширадиган мураккаб ижтимоий-иқтисодий тизимдир. У нафақат йирик саноат, молиявий ресурсларни, балки, илмий-техник ва меҳнат ресурсларини, маданий, ахлоқий қадриятлар, анъаналарни ўз ичига олади. Ушбу потенциалнинг асосий ташувчиси инсоннинг ўзи ҳисобланади. Шунинг учун уни амалга оширишнинг тўлиқлиги ва шунга мувофиқ равишда ижтимоий ривожланиш истиқболлари инсон ҳаётининг муҳити қандай бўлишига, унинг қобилиятлари қанчалик тўлиқ намоён бўлишига, эҳтиёжларнинг қондирилишига, қадрият йўналишларининг амалга оширилишига боғлиқ бўлади. Кичик шаҳарларнинг ижтимоий инфратузилмаси шаҳарсозлик жараёни ва барча ижтимоий тараққиёт учун муҳим бўлган ушбу муаммоларнинг ечимини таъминлаш учун мўлжалланади. Замонавий шаҳарнинг ҳар бир фазовий даражасида ўзига хос яшаш муҳити, аниқроғи уни амалга ошириш учун зарур бўлган шарт-шароитлар тўплами шаклланади.

Кичик шаҳарларда инсон ҳаётининг бирламчи муҳити ўзига хос даражада, яъни тўғридан-тўғри инсон ўз ҳаётининг асосий қисmini ўтказадиган жойда, унинг бошланғич ижтимоийлашуви содир бўладиган ва қадриятлар йўналишлари, муносабатлари шаклландиган жойда шаклланади. Бу ерда одам учун маълум бир жамоа шаклланади, уни анъанавий равишда “менинг уйим - менинг маҳаллам” деб аташ мумкин. Унинг учун бу тушунчалар инсон учун ажралмас бўлиб қолади ва у ўз уйини атроф-муҳит билан характерлайди. Кичик шаҳарлар бугунги кунда инсон ҳаёти учун шарт-шароитларнинг бутун мажмуасини шакллантириш учун ҳудудий асос бўлиб хизмат қилади. Иккинчи даражадаги - шаҳар - инсонни бу макон ва замонда эгаллаган ўрни тўғрисида субъектив ғояларни шакллантиради. Ҳаётнинг кенгроқ ва фаолроқ даражасига, эҳтиёжларига, қадриятга, йўналишларига ва қобилиятларига ўтиш жараёнида вужудга келган илгари белгиланган чегаралар ва янги-ларини амалга ошириш имкониятларини баҳолашга тегишлидир. Бундай вазиятда ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш шаҳарнинг ҳар бир алоҳида ҳудудида тўлиқ яшаш шароитларини яратишга йўналтирилган бўлиши керак. Бу нафақат ҳудудий тўлиқликни беради, балки, шаҳар аҳолисининг шаҳар ҳаётининг барча жабҳаларини ривожланишига сабаб бўлади.

Шахснинг шаҳар аҳолиси мақомидан хабардор бўлиши ягона ва ажралмас шаҳар макони даражасида содир бўлади, бу шаҳар аҳолисига берадиган моддий ва маънавий имтиёзлар ҳақида тўлиқ маълумот беради. Айнан шу ерда ижтимоий инфратузилманинг асосий функциясини амалга ошириш - инсоннинг тўлақонли ҳаёти ва шахснинг уйғун, оқилона ривожланиши учун шароит яратишдан иборат. Бироқ, бунинг учун шаҳар инфратузилмасини шаҳар аҳолисига хос бўлган ҳаётнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, мувофиқлаштирилган ва ўзаро боғлиқ ҳолда ривожлантириш талаб этилади. Шу боисдан ҳам аксарият социолог олимлар аҳолининг турмуш тарзини аҳолининг ҳаётнинг турли соҳаларида намоён бўладиган ва бир томондан, ижтимоий муҳитнинг детерминантлари томонидан белгиланадиган, барқарор, мунтазам ижтимоий амалиёти мажмуаси сифатида белгилайди. Ушбу ёндашув аҳолининг турмуш тарзининг хусусиятларини аниқ белгилайдиган омиллارнинг бутун мажмуасини ҳисобга олишга имкон беради.

Кичик шаҳар аҳолисининг турмуш тарзини ўрганиш социолог олимлар томонидан ҳаётнинг асосий соҳаларига: касбий ва меҳнат, оилавий ва маиший, ижтимоий-сиёсий, маданий ва бўш вақтларга мувофиқ таснифланади. Шунга қўра, санаб ўтилган соҳалардаги ижтимоий амалиётлар қуйидагича типологиялаштириш тўғри бўлади: касбий ва меҳнат соҳасида турли хил профессионал гуруҳларнинг иш билан таъминлаш амалиёти ва меҳнат амалиёти, аҳолининг таълим ва миграция амалиётлари ажралиб туради. Ижтимоий-сиёсий соҳада - шаҳар ва мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида аҳолининг иштирок этиш, қатнашмаслик амалиёти; оилавий ва маиший соҳада - аҳолининг маиший амалиёти, никоҳ



ва репродуктив амалиёт, қариндошлар ўртасидаги ижтимоий алмашинув амалиёти; маданий ва кўнгил очиш соҳасида - бўш вақт ўтказиш усуллари ва шакллари, бўш жойлар ва дам олиш хатти-ҳаракатлари воситаларини танлаш ва бошқалар шулар жумласидандир.

Ҳаёт тарзининг детерминантлари кичик шаҳарчада яшаш тарзининг ўзига хос хусусиятларини белгилайдиган омиллар мажмуаси сифатида тушунилади. Кундалик амалиётлар тўплами сифатида ҳаёт тарзини танлаш, биринчи навбатда, атроф муҳитни белгиловчи омиллар, иккинчидан, шахсий детерминантлар билан белгиланади. Атроф муҳитни белгиловчи омиллар - бу кичик шаҳарнинг ижтимоий муҳитининг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи объектив равишда мавжуд бўлган шарт-шароитлардир. Бунга қуйидагилар киради: *табиий детерминантлар*, географик хусусиятлар, кичик шаҳарнинг табиий салоҳияти, унинг вилоят марказидан узоқлиги, *ижтимоий-иқтисодий детерминантлар*, кичик шаҳарнинг ижтимоий инфратузилмасининг ривожланиш даражаси, унинг саноат салоҳияти, *ижтимоий-сиёсий детерминантлар*, шаҳарнинг маъмурий ҳолати, шаҳар атрофини ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар ва дастурлар, шаҳарда сиёсий партиялар ва ташкилотларнинг мавжудлиги, *демографик детерминантлар* кичик шаҳарнинг катталиги, аҳоли таркиби, *ижтимоий-маданий детерминантлар* (қиймат йўналишлари) ижтимоий муҳит, конфессионал ва этномаданий анъаналар даражасида.

Шахсий детерминантлар шахснинг ҳаёт тарзининг фаол субъекти сифатида ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи шахснинг мақоми, ижтимоий-демографик ва қиймат-норматив хусусиятлари сифатида тушунилади. Кичкина шаҳар аҳолисининг турмуш тарзи, аниқланган детерминантларнинг икки турининг одамга таъсирининг ҳар хил даражаси билан, шунингдек атроф-муҳит ва шахснинг детерминантларининг ўзаро таъсири билан белгиланади.

Кичик шаҳар аҳолисининг турмуш тарзи мураккаб характерга эга ва касбий ва меҳнат, ижтимоий-сиёсий, маданий, бўш вақт, оилавий ва меҳнат соҳаларида барқарор ижтимоий амалиётлар тўплами сифатида қаралади. Олиб борилган эмпирик тадқиқотлар давомида аниқланган кичик шаҳарга хос ижтимоий амалиётларга қуйидагилар киради.

- касбий ва меҳнат соҳасида: ишдан ташқари вақт ва аҳолини иккинчи даражали иш билан таъминлаш амалиёти; иқтисодиётнинг учинчи даражасида (савдо ва хизмат кўрсатиш) бандлик устунлиги; шахсий ёрдамчи хўжаликларни сақлаш амалиёти; меҳнат миграцияси амалиётлари (мавсумий ва ротацион); ёшларнинг таълим миграцияси амалиёти;

- ижтимоий ва сиёсий соҳаларда: аҳолининг юқори сайлов ва норозилик фаоллиги амалиёти; кичик шаҳарнинг жамоат ва сиёсий ҳаётида қатнашиш амалиётига озгина аралашади;

- оилавий ва маиший соҳада: икки болага йўналтирилган битта болали оила; катта (катта) ва тўла-тўқис оилаларнинг тарқалиши; қариндошлар ўртасидаги кўп ўлчовли ижтимоий алмашинув амалиёти; патерналистик амалиётнинг тарқалиши;

- маданий ва бўш вақт соҳасида: бўш вақтни (уйда, оилада) ўтказишнинг ёпиқ усуллари амалиёти; бўш вақтни тўлдиришнинг оддий шакллариининг тарқалиши (телевизор кўриш, ўқиш, ухлаш); маҳаллий газеталарни мунтазам ўқиш амалиёти; спиртли ичимликларни ҳаддан зиёд истеъмол қилиш амалиёти; «очик» дам олиш амалиёти. Ўзбекистоннинг Хоразм, Бухоро, Қашқадарё, Жиззах, Тошкент ва Наманган вилоятларида 2021 йил апрел ойида ўтказилган тадқиқотимиз натижалари асосида қўйидагича маълумотлар тўпланди ва таҳлил қилинди.


1-расм.






Тадқиқотимизда қатнашган ва яроқли деб топилган 1189 та анкетали сўровномамизда иштирок этган респондентларнинг энг кўп 30% ни олий маълумотли бакалаврлар ташкил этган бўлса, 23% ни ўрта махсус маълумотлилар, 14% ни эса 5 йиллик олий таълимни битирган олий маълумотлилар, энг кам 0,4% ни эса фан номзоди ва фан докторлари ташкил этди.

2-расм.



Ўтказилган тадқиқотимизнинг “Сизнинг шаҳарчангизда аҳолининг бандлик даражасини ҳолатини белгиланг” деб берилган саволга респондентларнинг катта қисми 24,8 % ўрта маълумотли аҳоли ишсиз деб жавоб берган бўлса, 23,1 % респондент аҳолининг катта қисми ишсиз, миграцияда қатнашади деб жавоб берган. Бунда хулоса қилиш мумкинки кичик шаҳарларнинг аҳолисида ишсизлик даражаси юқори. Асосан олий маълумотли аҳоли учун иш ўринлари мавжуд деган жавоб ҳам 21,6 % ни ташкил этади.


3-расм.






Кичик шаҳарларда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, маиший-ижтимоий хизмат кўрсатиш тизимини ривожланишига тўсқинлик қилувчи омилларни кўрсатиш? –деган саволга респондентларнинг энг 51 % банклардан олинган кредитларда юқори фоиз ставкалари деб жавоб берган бўлса, энг кам кўрсаткичлардан бири 5,1 % аҳоли орасида боқимандалик кайфияти деб жавоб берган. Бундан кўриниб турибдики банк хизматларидаги кредитларни фоиз ставкасининг баландлиги хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш учун асосий тўсиқ сифатида таъкидланган.

3-расм.



Бугунги кунда камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ташкил қилинган темир дафтар масаласига эътибор қаратиб қўйган “Кичик шаҳарларда моддий ёрдам ва кўмакка муҳтож “темир дафтар”га киритилган oilаларнинг тоифасини қайси йўл билан қисқартириш мумкин деб ҳисоблайсиз? Деган саволимизга респондентларнинг асосий 59,9 % фақат янги иш ўринларини яратилиши деб жавоб берганлар.

4-расм.





Кичик шаҳарлар инфратузилмасини шакллантирувчи йўллар, сув, табиий газ таъминоти, электр энергияси ва бошқа шароитлар етарли эмаслигига сабаб нима? Деб берган саволимизга респондентларимизнинг 32,2 % бу кичик шаҳарнинг пойтахтдан узоқда жойлашганлиги деб жавоб берган.

Шу нуктаи назардан олиб қараганда ижтимоий муҳитни аниқловчи ва шахсий детерминантлар ҳаётнинг турли соҳаларида кичик шаҳарлар аҳолисининг турмуш тарзини ҳар хил даражада белгилайди. Касбий-меҳнат ва маданий-бўш вақт соҳаларида ижтимоий муҳитнинг ҳал қилувчи омиллари ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Улар орасида: ижтимоий-иқтисодий (кичик шаҳарча тури, турмуш даражаси), табиий (кичик шаҳарчанинг вилоят марказидан узоқлиги) ва ижтимоий-маданий (шаҳарнинг тарихий ва маданий салоҳияти ва қиймат йўналишлари тизими) белгиловчи омиллар устувор аҳамият касб этади. Ижтимоий-сиёсий ва оилавий-маиший соҳаларда турмуш тарзининг ўзига хос жиҳатлари асосан шахсий детерминантлар билан белгиланади (маълумот даражаси, жинси ва ёш хусусиятлари, оилавий аҳволи, шунингдек шаҳар аҳолиси кичик шаҳарчада яшаш муддати билан чамбарчас боғлиқ). Тадқиқотнинг асосий гипотезаси - бу кичик шаҳар аҳолисининг турмуш тарзининг мазмуни ҳаётнинг турли соҳаларида амалга ошириладиган ва ҳар хил детерминантлар билан белгиланадиган ижтимоий амалиёт мажмуаси билан боғлиқ. Кичик шаҳар аҳолисининг турмуш тарзи барча кичик шаҳарларга хос бўлган умумий хусусиятларга ва ҳар хил турдаги шаҳарларни ажратиб турадиган ўзига хос хусусиятларга эга. Ушбу ҳолат кичик шаҳарларнинг турмуш тарзини ўрганиш натижаларини мамлакатнинг бошқа шунга ўхшаш жойларига экстраполяция (нарс ва ҳодисанинг бир қисмини кузатиш асосида олинган хулосалар) қилиш мумкинлигини кўрсатади.

Кейинги ўттиз йилликда жамият ҳаётининг турли соҳаларида жиддий ўзгаришлар юз берди. Одамларнинг сиёсий тизими, иқтисодий тузилиши, дунёқараши, қадрият йўналишлари ўзгарган. Кичик шаҳарда яшовчи аҳолининг асосий ижтимоий амалиётининг муҳим хусусиятларини ҳар томонлама социологик таҳлил қилиш бизга янги ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ва ижтимоий-маданий омиллар таъсири остида ҳаёт тарзи тўғрисида хулоса қилишга имкон берди. аҳоли янги хусусиятлар ва янги таркибга эга бўлди.

Умуман олганда, аҳолининг турмуш тарзи каби кўп қиррали ҳодисани ўрганиш кенг илмий истиқболларга эга ва уни қуйидаги йўналишларда давом эттириш мумкин: биринчидан, аҳоли турмуш тарзини ва уни белгиладиган детерминантларни қиёсий тадқиқ қилиш, аҳоли пунктлари (катта ва кичик шаҳарларда, қишлоқ жойларида); иккинчидан, ҳаётнинг турли соҳаларида аҳолининг турли хил ижтимоий амалиётларини (масалан, анъанавий ва инновацион) ўрганиш; учинчидан, шаҳар шароитида аҳолининг айрим гуруҳларининг турмуш тарзини ўрганиш ва бошқалар. Аҳолининг турмуш тарзини минтақавий ўрганишни ҳар томонлама таҳлил қилиш нафақат мамлакат ҳудудларининг динамик ва статистик ривожланиш хусусиятларини ҳолисона баҳолашга, балки, одамларнинг ижтимоий амалиётларини ҳам аниқловчиларнинг тўпламига қараб тушунтиришга кенг имкон беради.

Адабиётлар

1. Ф.Теннис *Общность и общество. Основные понятия чистой социологии* = *Gemeinschaft und Gesellschaft. Grundbegriffe der reinen Soziologie*. — М.: Фонд Университет, СПб.: Владимир Даль, 2002. — 450 с.,
2. Гидденс Э. *Социология*. Тошкент, «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни. 2002. – 846 Б;
3. Бурдьё П. *Социология социального пространства*. М.: Изд. «Алетейя», 2007. – С. 80-278
4. А.Б. Гофмана, примечания В.В. Сапова. М.: Канон, 1996. - 332 с.;
5. Лаппо Г.М. *Проблемы малых городов*. - В сб.: *Народонаселение и экономика*. - М.: Экономика, 1967.- с. 170-186.
6. “Ўзбекистонда кичик шаҳарлар ижтимоий инфратузилмасини бошқариш ва ривожлантириш механизмлари” мавзусида 2021 йил апрел ойида ЎЗМУ изланувчиси Қаюмов Қ.Н. томонидан ўтказилган социологик тадқиқот натижалари.



РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО - ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Нуржанова Феруза Садретдиновна
Учительница начальных классов средней
общеобразовательной школы № 2
Попского района Наманганской области

Аннотация: В этой статье даются рекомендации учителям правильно организовать уроки, конспект уроков используя рекомендуемые в течении учебного года для повышения качества образования, а так же учителя смогут на их основе разработать собственные простые, но действенные методы.

Ключевые слова: урок, качества, форма, демонстрация, педагог, метод, прем, вид, цели, анализ, педагогика, школа.

Основная задача системы образования и воспитания на сегодня-воспитание подрастающего поколения патриотами, владеющими современными знаниями, умениями и навыками, людьми, занимающими свое достойное место в обществе, стремящимися к совершенству, гармоничному развитию.

Интенсивное развитие науки и техники, отраслей производства настоятельно требует поднятие на новый уровень в содержательном отношении качества образования и воспитания в образовательных учреждениях. Это, в свою очередь накладывает еще большую ответственность и ставит задачи перед каждым работником системы, особенно учителями, потому что существует одна неопровержимая –все последующие дела, в конце концов проявляют свои результаты через труд учителя.

Следовательно, от педагогов требуется работать на совесть, остро чувствовать ответственность перед светлым будущим, достойно ответить на проявляемую высокую заботу. А это находит свое отражение в организации качественного урока, играющего основную роль в овладении детьми глубокими знаниями. Каждый учитель должен подходить к любому отдельно взятому уроку как к самому главному, ответственному делу.

Урок –это целевая организация учителем учебно-воспитательного процесса на основе календарно-тематического плана в течение отведенного времени.

Ведь основу деятельности каждого учителя-предметника составляют проведение качественного урока,предоставление учащимся хорошего образования и воспитания.

Готовность учителя к уроку проявляет следующие два этапа:

1. Общая готовность учителя по своему предмету.
2. Ежедневная готовность учителя к каждому уроку.

Процесс обучения заключается во взаимодействии учителя и ученика и осуществляется через совместную деятельность, которая основана на системе знаний о мире, разнообразных способах деятельности, в которую он включен.

Известно, что процесс обучения выполняет образовательную, воспитательную, и развивающую функцию, то есть цели. Цели урока могут быть следующими:

Развивающие цели: развитие умений учебно-познавательной деятельности; развитие интеллекта; развитие умения организации учебного труда; развитие культуры устной и письменной речи; развивать умение обобщать,гибкость мыслительных процессов; развитие интеллектуальной, волевой, мотивационной сфер личности; развитие любознательности учащихся, их познавательного интереса; развитие мышления через умения обобщать и систематизировать, доказывать опровергать; развитие логического, абстрактного, эвристического, системного мышления.

Воспитательные цели: воспитание ответственности, самостоятельности, критичному отношению к себе; воспитывать культуру умственного труда, способствовать укреплению здоровья, поддержания на высоком уровне общей работоспособности для учения; воспитывать осознание приоритета общечеловеческих ценностей перед классовыми и групповыми; воспитывать ответственности, самостоятельности, настойчивости, культуры математического мышления; воспитывать рациональную организацию бюджета, времени, бережливое соотношение к собственности, экономическую культуру; воспитывать добросовестное от-



ношение к труду, дисциплину, инициативу и творчество, предприимчивость и деловитость, готовность к свободному, сознательному выбору профессии.

В учебном процессе с целью эффективного разъяснения и усвоения материала, учитель должен использовать разнообразные формы и методы обучения.

Под формой организации обучения понимается внешнее выражение согласованной деятельности обучающихся и обучаемых, осуществляемое в определенном порядке и режиме. К формам обучения относят: урок, лекция, семинар, практическое и лабораторное занятие, социально-психологический тренинг, конференция, экскурсия, учебная практика, консультация, зачет, экзамен.

Метод обучения- это система последовательных взаимосвязанных способов работы педагога и обучаемых детей, которые направлены на достижение дидактических задач. Выделяют наглядные приемы обучения: показ способов действий, показ образца. *Практический*: упражнения, опыты и экспериментирования, моделирование. *Эвристический*: Эвристическая беседа, диагностический тест. *Схематизация*: Опрос по цепочке, «карусель обучения», «Puzzle», «логическое дерево». «Т-таблица», Тест без слов, рыбий скелет, кластер. *Словесный*: Беседа по методу Сократа, мозговой штурм, « Удивляй». *Моделирование*: план комнаты, географическая карта, компас. *Исследовательский*: «привлекательная цель», « мозаика». *Игровые методы*: «крестики–нолики «светофор», «лабиринт», «зашифруй слово», «деловая игра» и д.р. *Репродуктивный*: «информационная недостаточность», «информационная перенасыщенность», «фантастическая добавка». *Частично - поисковый*: «Сравниваем позицию», « Да-нет», —Своя опора.

Типы урока: объяснение нового материала, обобщение и систематизация ЗУНов, комбинированный урок, нестандартный, контроль и проверка ЗУНов.

Виды урока: беседа, практическая (лабораторная) работа, урок лекция, обзор, встреча, путешествие, диалог, исследования, урок-игра, соревнование, аукцион знаний, семинар, диспут, конференция, зачет, практикум, самостоятельная работа, контрольная работа, тестирование, урок с применением ИКТ, экскурсия.

Тестирование-главный и важный способ проверки знаний учащихся усвоивший новую тему в течении урока, а так же в течении четверти и всего учебного года. Типы тестирования: Блиц-тест, Тест без слов, Диагностический тест, Тренировочный тест, устный тест.

Домашнее задание служит для обобщения и закрепления пройденного материала. Типы домашнего задания: Д/З массивом, Идеальное Д/З, Три уровня Д/З, Особое задание, Своя опора, Необычная обычность, повторяем по контрольному списку.

Следует помнить, что качественный урок –это эффективно усвоенный учащимися урок. Следует учесть, что настоящие рекомендации дают возможность учителям правильно организовать уроки в течении учебного процесса, повышения качества образования. Педагогические коллективы, отонсясь к ним творчески, смогут на их основе разработать простые, но действенные методы.

Список использованной литературы

1. Л.В.Аверина и др. «Педагогика».
2. Т.А.Козлова «Методические рекомендации», Методические пособие.
3. И.Р.Гайнутдинова, Г.В.Эйгелис «Основы педагогики».



КОУЧИНГ И МЕНТОРИНГ КАК МЕТОДЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ

Раджапова Ольга Ренатовна

Учитель начальных классов
специализированной государственной
общеобразовательной школы № 3
города Ургенч Хорезмской области

Аннотация: В этой статье обсуждается важность менторинг и коучинга для повышения осведомленности учащихся начальных классов.

Ключевые слова: коучинг, менторинг, педагогика, школа, обучение, учитель, начальных классов, урок, качества.

Использование системы мониторинга для повышения качества знаний позволило выявить реальную возможность прослеживания за процессом успешности развития учащихся начальных классов. Различные упражнения, задания по развитию критического мышления учеников позволили сделать вывод о том, что дети, занимавшиеся по развитию критического мышления, стали лучше учиться, о чем свидетельствуют оценки, полученные ими. При оценке учебной деятельности были разработаны критерии оценивания. Это способствует выявлению более точного состояния качества знаний учащихся на начальном, промежуточном и итоговом этапе. Если качество знаний у отдельных учеников осталось на прежнем уровне, то у 50% учащихся класса оно повысилось. Такой результат зависит, в первую очередь, от учителя.

Современный учитель на уроке – это показатель высокой профессиональной компетентности педагога. Для внедрения запланированных мероприятий по повышению качества знаний на уроках были предусмотрены коучинги и менторинги. Они процессы благоприятствуют овладению учителями навыками, позволяющими им посредством процессов коучинга и менторинга, ознакомить коллег с новыми подходами в преподавании.

Занятия через коучинги и менторинги позволили учителям школы приобрести и повысить качества личности:

- * научно-психологическое мышление;
- * высокий уровень педагогического мастерства;
- * решительность и способность к риску;
- * развитое педагогическое чутьё;
- * психологическое видение ребенка;
- * потребность в профессиональном самовоспитании.

По итогам преобразований наблюдается педагогический рост учителя. При определении стартового состояния школы мы отмечали, что некоторые учителя всегда остаются в стороне, своего мнения не высказывают, не делятся опытом работы. После проведения ряда мероприятий, в том числе и коучингов мы отмечаем, что учитель прошел адаптацию преобразований и стал постоянным участником всех происходящих процессов. Результатом его деятельности стало то, что он подверг собственную практику процесс переосмысления и исследования. Профессиональное развитие сопряжено с личностным развитием учителя. Развитие критического мышления у учащихся начальных классов повышает качество уроков, тем самым, мотивируя их на обучение.

Одним из лучших показателей роста профессионального мастерства учителя по развитию критического мышления учащихся является Lesson Study. Повышение качества знаний отслеживалось через уроки, которые совместно разработала группа учителей начального звена. Поддерживая идею 7 модулей программы Первого (продвинутого) уровня учителя в своей работе использовали информационно-коммуникационные технологии. Результатами деятельности после каждого коучинга стала проведенная обратная связь, в ходе которой учителя высказывали свою позицию относительно прошедшего коучинга, его положительные и отрицательные стороны. Обратная связь позволила выявить эмоциональное состояние коллег, задействованность, вовлеченность в процессе преобразований, заинтересованность темой и дальнейшим практическим использованием ее. Учитель оказывал содействие



в проведении разминок, как в урочное, так и во внеурочное время. Для определения эффективности преобразований в школе запланировано ряд мероприятий, в ходе которых будут подведены итоговые результаты деятельности педагогов. Также планируется проведение тестирований и анкетирований для выявления и сопоставления данных до и после преобразований в школе. На основе промежуточных результатов, внедряемых изменений, полученных при тестировании и анкетировании, разработан план коррекции для образовательной организации.

Список использованной литературы

1. <http://nsportal.ru/npo-spo>
2. Ермолаева М.Г. Интерактивные методики в современном образовательном процессе.
3. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе.
4. Интернет-сайты



ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ СОҲАСИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИ МАСАЛАЛАРИ

Шаисламова М.Р.

ТДИУ, мустақил изланувчиси

Миллий иқтисодиётда бозор муносабатлари ривожланишининг ҳозирги босқичида тўлиқ инновацион фаолиятни амалга ошириш иқтисодиётни янада самарали қайта қуришни олдиндан белгилаб берадиган вазият юзага келди. Сўнгги ўн йил мобайнида иқтисодий муҳит ва хўжалик юритувчи субъектларнинг инновацион фаоллиги ўртасидаги ўзаро муносабатлар жараёнини ўзгартирган воқеалар рўй берди, улар хатти-ҳаракатларнинг стереотипларини кўп жиҳатдан ўзгартиришга мажбур бўлишди. Бозорда баъзи янги хизматлар, товарлар, технологияларнинг пайдо бўлиши ва бошқаларнинг аста-секин сўниб кетишининг асосий сабаби айнан инновациялар ва корхоналарнинг инновацион фаолиятидир. Шу сабабли инновацион фаолият иқтисодиётни ривожланишнинг инновацион турига ўтказишнинг долзарблигини белгилаб берадиган давлат сиёсатининг энг муҳим воситаларидан бирига айланмоқда. Бу, ўз навбатида, бошқарувнинг қайта тузилишини, турли соҳалардаги хўжалик юритувчи субъектлар даражасида инновацион фаолиятни ташкил этиш ва режалаштиришни олдиндан белгилаб қўйди.

Фикримизча, телекоммуникация соҳасида инновацион такрор ишлаб чиқариш жараёни қонунлари ва тамойиллари асосида корхона инновацион тизимини бошқариш модели ишлаб чиқиши керак, бунда инновацион ғоя, уни яратиш ва ривожлантириш, экспериментал намунани олиш, уни серияли, оммавий ишлаб чиқаришга чиқариш ва янги маҳсулотларга - товарларга (хизматларга), технологияларга айланиш киради.

Инновацион жараённинг барча босқичлари самарадорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирлар орқали унинг самарадорлиги ўсишини таъминлайдиган инновацион фаолият захираларидан фойдаланиш йўналишларини аниқлаш мумкин булади. Корхона инновацион фаолиятни амалга ошириши учун у шундай тузилишга эга бўлиши керак ва бундай қулайлик тадбиркорлик муҳити, янги қулай имкониятларни идрок этиш муҳитини яратишга ёрдам беради.

Телекоммуникация соҳасининг асосий роли миллий иқтисодиётнинг инновацион ривожланиш йўлига ўтиш жараёнларига таъсирининг туб моҳиятида намоён бўлади. Бу ҳолат, ўз навбатида, мамлакатни инновацион ривожланиши учун хавф туғдирадиган ички ва ташқи омиллар таъсирини ҳисобга олган ҳолда ҳозирги ривожланиш босқичи талабларига жавоб берадиган телекоммуникация корхоналарини инновацион фаолиятини ривожлантиришни тақозо этади.

Иқтисодий категория сифатида “инновация” тушунчаси биринчи марта 1930 йилда Й.Шумпетер томонидан таклиф қилинган. Й.Шумпетер, “Иқтисодий ривожланиш назарияси” асарида тадбиркорлик (ёки инновация) ривожланишидаги турли хил комбинацияларни кўриб чиққан¹.

К.Р. Макконнелл ва С.Л. Брюларнинг фикрича, инновация (ёки инновациялар) - бу янги маҳсулотни ишлаб чиқариш, янги ишлаб чиқариш технологиясидан ёки бизнесни ташкил этишнинг янги шаклидан фойдаланиш демакдир деб таърифлашган².

Ф. Котлернинг таъкидлашича, инновацияларни ташкилотларнинг бозор асослари нуктаи назаридан - оммавий ишлаб чиқаришга мўлжалланган ва бозорга тақдим этиладиган, шунингдек истеъмолчи томонидан бутунлай янги ёки ноёб хусусиятларга эга бўлган ғоя, маҳсулот ёки технология сифатида талқин қилади³.

Оксфорд университети профессори М.Додгсоннинг таърифига кўра, “инновация илмий, технологик, ташкилий ва молиявий фаолиятдан иборат бўлиб, янги (ёки яхшиланган) маҳсулот, янги (ёки яхшиланган) ишлаб чиқариш жараёни ёки қурилмалар тижоратига олиб

¹ Й.Шумпетер Теория экономического развития (Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры) / Й. Шумпетер//— М.: Прогресс, 1982. — 456 с.

² Макконнелл, К.Р. Экономикс: принципы, проблемы и политика: в 2 т. 158 / К.Р. Макконнелл, С.Л. Брю. пер. с англ. Н. Н. Барышиковой. — М. : Инфра-М, 2001.— Т. 2.

³ Котлер, Ф. Основы маркетинга / Ф. Котлер. - М.: Прогресс, 1991. - 736 с.



келади¹.

Ф.Янсеннинг фикрига кўра, “инновация бу янги нарсани тижоратлаштиришдир”. Энг муҳим янгилик бу янги бизнес, аммо у бошланғич янгилик ва кейинги инновацион тўлқин ёки “инновацион майдон”га асосланган бизнес ғояни ўз ичига олади².

Шундай қилиб, илмий адабиётларда мавжуд бўлган “инновация” тушунчасини талқин қилишни таҳлил қилиш асосида, ушбу концепция сифат жиҳатидан янги истеъмол хусусиятларига эга бўлган маълум бир маҳсулотни (товарларни ёки хизматларни) ишлаб чиқариш натижаси сифатида тушунилади, шунингдек, тизимнинг иқтисодий самарадорлигини оширишга ва тизимнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашга имкон берадиган бошқарув жараёни, меҳнатни ташкил этиш ва ишлаб чиқариш соҳасига технологик, жараёнли ёки ташкилий янгиликларни киритиш ҳам бу жараёни асосини ташкил этади.

Шундай қилиб, корхонанинг инновацион фаолияти – бу ривожланиш ва модернизация қилиш учун инновацияларга бўлган эҳтиёжни қондириш ва шу асосда фойда олиш учун корхонанинг интеллектуал ва техник салоҳиятини рўёбга чиқаришга қаратилган чора-тадбирлар тизимидир.

Телекоммуникация корхоналарининг инновацион фаолиятини ривожланиши масалаларига бағишланган асарларнинг таҳлили шуни хулоса қилишга имкон беради: «инновацион фаолиятнинг ривожланиши» атамаси иқтисодий муносабатлар субъектлари фаолиятининг қуйидаги жиҳатлари билан боғлиқ ҳолда қўлланилади:

- ташкilotнинг рақобатбардошлигини ошириш бўйича чоралар кўрилганда;
- инновацион фаолиятни амалга ошириш учун мавжуд ресурслар асосида ташкilotнинг инновацион салоҳиятидан тўлиқ фойдаланиш учун;
- инновацион цикл томон ҳаракатланиш тезлиги билан боғлиқ ҳолда аниқланадиган инновацион жараён самарадорлигини ошириш;
- янги техника ва технологияларни иқтисодий муомалага киритиш шarti ва имконияти сифатида, инновацион ривожланишнинг ҳаракатлантирувчи омили эса киритилган янгиликларнинг янгилик даражаси ва бошқалар.

Телекоммуникация корхонаси фаолиятида инновацияларнинг ролини аниқлаш учун уларни амалга оширишнинг объектив зарурлигини кўриб чиқиш лозим:

- биринчидан, янгиликларни яратиш ва улардан фойдаланиш, бир томондан, товар ишлаб чиқарувчиларнинг рақобат кураши билан боғлиқ бўлса, иккинчи томондан, рақобатбардошликни оширишда ҳал қилувчи омил ҳисобланади;
- иккинчидан, инновацияларни ишлаб чиқиш ва жорий этишда биринчилардан бўлиб бозорда вақтинчалик монополия натижасида қўшимча фойда олиш имкониятига эга;
- учинчидан, тубдан инновация - бу кичик телекоммуникация корхонасини етакчи корпорацияга айланиши мумкин бўлган ягона восита.

Бизнингча, юқорида санаб ўтилган сабабларнинг телекоммуникация корхонасининг инновацион фаолиятига таъсирининг турлича аҳамиятини қайд этиш мақсадга мувофиқдир.

Телекоммуникация корхоналарини инновацион фаолиятини ривожлантириш самарадорлигини оширишда қуйидаги усулларни ишлаб чиқиш зарур деб ҳисоблаймиз:

- телекоммуникация хизматлари соҳасида корхонанинг ташкилий тузилишини синтез қилиш усули;
- телекоммуникация хизматлари кўрсатиш соҳасидаги корхона фаолиятидаги иқтисодий ноаниқлик зонасини иқтисодий ва математик моделлаштириш усули;
- телекоммуникация хизмати корхонасини таркибий қайта ташкил этиш усули.

Ушбу махсус усуллар телекоммуникация компанияларини ташкилий лойиҳалаш ва ривожлантириш самарадорлигини бошқариш учун умумий асосдир.

Ушбу мақсадларга эришиш учун, аввало, ҳар хил турдаги истеъмолчилар ўртасида хабарларни узатишни, шунингдек уларни қайта ишлашни таъминлайдиган юқори даражада ташкил этилган автоматлаштирилган алоқа тармоғини яратиш зарур.

Юқорида айтилганлар таркибига юқори сифат ва ишончлилик курсаткичларини ҳам

¹ Янсен Ф. Эпоха инноваций. М.:Инфра-М, 2002.- 308с. Серия: Менеджмент для лидера ISBN: 5-16-001234-6

² Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach – Oxford University Press, 2000. -248 p.



қўшиш мақсадга мувофиқ.

Телекоммуникация соҳасидаги самарадорликни оширишга қаратилган чора-тадбирлар мажмуини бир қатор вазифаларга ажратиш мумкин, масалан:

- бирламчи ва иккиламчи тармоқларни модернизация қилиш ва ривожлантириш;
- мавжуд асосий воситалардан, шу жумладан тармоқ объектларидан энг яхши фойдаланишни ҳисобга олган ҳолда барча тармоқларни ривожлантиришга капитал қўйилмаларни таъминлаш;

- хизматларни бирлаштириш, яратиш билан рақамли тармоқларга ўтиш интеллектуал тармоқлар, уяли алоқа тармоқлари ва универсал шахсий алоқа, мултимедиа хизматларини жорий этиш ва бошқалар.

Ушбу соҳага рақамли технологияларни жорий этиш натижасида ходимларни қисқартириш масаласи кескинлашди, бу эса ҳар қандай корхона учун исталмаган ижтимоий таркибий қисм ўзгаришига олиб келади. Телекоммуникация соҳаси кадрлар муаммосида юзага келадиган муаммоларни ҳал қилиш учун тартибга солиш йўналишида қайта тузилишга муҳтож.

Янги ижтимоий-иқтисодий шароитлар даврида телекоммуникациялар соҳасида муваффақиятли ишлаш фақат янги техник сиёсатни ишлаб чиқиш билан амалга оширилиши мумкин. У мамлакатни тезкор бошқаришни таъминлаш ва соҳанинг кейинги ривожланиши учун техник-иқтисодий заруриятларни яратиш мақсадида телекоммуникация технологияларини жорий этишни жадаллаштиришга қаратилган қатор дастурий тадбирларни ишлаб чиқишни назарда тутиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Й.Шумпетер Теория экономического развития (Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры) / Й. Шумпетер//– М.: Прогресс, 1982. – 456 с.
2. Макконнелл, К.Р. Экономикс: принципы, проблемы и политика: в 2 т. 158 / К.Р. Макконнелл, С.Л. Брю. пер. с англ. Н. Н. Барышниковой. – М. : Инфра-М, 2001.– Т. 2.
3. Котлер, Ф. Основы маркетинга / Ф. Котлер. - М.: Прогресс, 1991. - 736 с.
4. Янсен Ф. Эпоха инноваций. М.:Инфра-М, 2002.- 308с. Серия: Менеджмент для лидера ISBN:5-16-001234-6
5. Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach – Oxford University Press, 2000. -248 p.



ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Шерматов Адхам Фозилович
ИИВ Академияси Ҳарбий тайёргарлик
кафедраси катта ўқитувчиси
Байдадаев Искандар Шуқуриллович
ИИВ Академияси Ҳарбий тайёргарлик
кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг педагогик жиҳатлари ёритиб берилди.

Таянч тушунчалар. ёшлар, ҳарбий, ҳарбий ватанпарварлик, ҳарбий таълим, ҳарбий тарбия, тинчлик

Мустақилликнинг дастлабки кунларидан республикамызда ёшларнинг баркамол инсон бўлиб, улғайишига алоҳида эътибор берилди. Лекин мазкур соҳада амалга оширилган тадбирларимиз ўзининг асосий мақсадига эриша олмади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев бу ҳақида танқидий фикр билдириб «ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик ва маънавий-ахлоқий қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш ва ўқитиш, навқирон авлодимизни бизнинг халқимизга мутлақо бегона бўлган бузғунчи ғоялардан ҳимоя қилиш масалаларига зарур даражада эътибор қаратилмади», - дея таъкидлади. Дарҳақиқат, юртбошимиз билдирган танқидлар ҳамда мазкур соҳада белгилаб берган вазифалардан келиб чиқиб, бугунги кунда мамлакатимиз ёшларини ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш долзарб вазифалардан ҳисобаланади.

Барча тинчликсевар мамлакатлар сингари Ўзбекистон Республикасида ҳам инсон ҳуқуқ ва эркинлиги, давлат ва фуқаролар ҳавфсизлигини таъминлаш, фуқаролар учун эркин ва фаровон ҳаёт кечиришлари учун шарт-шароитларни яратиш каби вазифалари мавжуд. Албатта мамлакат ёшларида бу вазифаларни амалда таъминлаш кўникмаси ортган, малака ва тажрибаси шаклланган бўлиши мақсадга мувофиқ. Уларда ҳарбий ватанпарварлик кифоаси ёшликдан шаклланган бўлиши мамлакат тараққиётида ҳам муҳим ўрин тутди. Шу мақсадда ҳам 2018 йил 23 февралда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги 140-сон Қарори билан «Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси» қабул қилинди. Унда ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масаласига жисмонан ва маънан соғлом авлодни тарбиялашга оид яхлит таълим-тарбия тизимининг узвий ва ажралмас қисми сифатида қаралиб, Ўзбекистон Республикасини 2017 – 2021 йилларда ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси талаблари асосида миллий ва жаҳондаги илғор тажрибалар, бугунги Ўзбекистон ҳаётидаги реал ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан уйғун равишда такомиллаштириш масаласига алоҳида эътибор қаратилганлиги таъкидланди.

Дарҳақиқат, ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масаласи умумиллий миқёсидаги вазифалардан бири ҳисобланади. Чунки ватанпарвар бўлмаган инсон ўз юрти, ўз халқи учун қайғурмайди, жонини фидо қилмайди. Зеро, ўзбек маърифатпарвари Абдулла Авлоний таъкидлаганидек, ҳар бир кишининг туғилиб-ўсган шаҳар ва мамлакатини шу кишининг Ватани дейилур. Демак, инсон онгли мавжудот сифатида ўз Ватанини улуғлаши, тараққиёти учун қайғуриши, тинчлиги, ҳавфсизлиги учун курашмоғи унинг ватанпарварлигидан далолат беради. Таълим муассасаларида таълим олаётган ёшларни мана шу руҳда тарбиялаш мамлакат равнақи учун катта аҳамиятга эга бўлади.

Асосий қонунимизда «Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар», - дейилган. Ушбу нормадан келиб чиқиб айтиш мумкинки, мамлакатимиз барча фуқаролари учун инсонпарварлик принциpidан келиб чиққан ҳолда бир хил эътибор қаратилади. Ёки Конституциямызнинг 52-моддасида «Ўзбекистон Республикасини ҳимоя қилиш — Ўзбекистон Республикаси ҳар бир фуқаросининг бурчидир. Фуқаролар қонунда белгиланган тартибда



ҳарбий ёки муқобил хизматни ўташга мажбурдирлар», - деган ҳуқуқий норманинг киритилганлиги ҳам ҳар бир фуқарога ватанпарварлик унинг ажралмас бурчи эканлиги англатади. Ёшларимизда ватнапарварлик фазилатларини шакллантиришни ёшликдан амалга оширишимиз муҳим аҳамият касб этади.

Ёшларни ҳарбий, ҳарбий ватанпарварлик тарбиясига республикамызда катта эътибор қаратилмоқда. Чунончи, ёшларимизнинг ҳарбий тайёргарлиги ўқув муассасалар ва бошқа ўқув юртлари, «Ватанпарвар» мудофаага кўмаклашувчи ташкилот ўқув тўғаракларида, чақирикқача ва чақирик ёшидаги ёшларнинг ҳарбий тайёргарлик тизимида; Куролли Кучларда шахсий таркибнинг муддатли ҳарбий хизматни ўташи давомида, ҳарбий лицейлар, республика фуқаролик олий таълим муассасаларининг ҳарбий факультет ва кафедраларида, Куролли Кучларга тегишли бўлган махсус тузилмаларда, куч ишлатар тузилмаларнинг академик лицейларида олиб борилмоқда.

Дарҳақиқат, бугунги кунда мамлакатимиз таълим муассасаларида «Чақирикқача ҳарбий тайёргарлик» фани, кўпчилиқ олий таълим муассасаларида ҳарбий кафедралар, Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университетида «Чақирикқача ҳарбий таълим» йўналиши доирасида ўқувчи ва талаба ёшларимизни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашга эътибор берилмоқда.

Ватанпарварлик – юксак инсоний фазилат ҳисобланади. Алишер Навоий шахзода Бадиуззамонга ёзган мактубларидан бирида мақсад хусусида шундай ибратли фикрларини баён этган: «Одамнинг мурод-мақсади бўлмаса, балолардан омон қолмайди. Аммо ҳар кишининг муроду кўпроқ бўлса, ҳақ-таоло амрига итоати кўпроқ бўлади». Таълим ташкилотларида ўқувчи, талаба, тингловчи ва курсантларда ватанпарварлик ҳиссини шакллантириш бош ғоямизнинг маъно-мазмунини уларнинг онгу шуурига сингдириш воситасида амалга оширилади.

Ёшларимизни мустақил фикрлашга ўргатишимиз, уларни нопок йўллардан асраб қолади. Ўзбекистон Республикасининг Президенти бу ҳақида билдирган қуйидаги фикрлари ҳаммамиз учун дустуруламал вазифасини ўташи керак: «Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз».

Ёшларда ҳарбий ватанпарварлик туйғуларини шакллантириш адолатпарварлик билан ҳам мустаҳкам боғлиқ. Инсон умрига маъно-мазмун бахш этувчи адолат ҳақиқатга риоя қилишда, ҳар бир нарсани ўз ўрнига қўя билишда намоён бўлади.

Хулоса қилиб айтганда Демак, Ватан равнақиға ғов бўладиган ҳаракатларға йўл қўймаслик, уларға нисбатан мурасасиз бўлиш ҳам Ватанға муҳаббат ҳиссини камол топтиришға хизмат қилади. Бу ўринда таълим ташкилотларида фаолият юритаётган педагогларнинг ҳам роли бекиёсдир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // <http://lex.uz/docs/20596# 39092>
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 140-сон Қарори // <http://lex.uz/docs/3571158>
3. Алишер Навоий. Асарлар. 13-жилд. – Т., 1996. – Б.126.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиётиваҳалқфаровонлигининггарови//[https://nrm.uz/contentf?doc=480816_o'zbekiston_respublikasining_saylangan_prezidenti_shavkat_mirzиеevning_o'zbekiston_respublikasi_konstituciyasi_qabul_qilinganining_24_yilligiga_bag'ishlangan_tantanali_marosimdagi_maruzasi_\(2016_yil_7_dekabr\)](https://nrm.uz/contentf?doc=480816_o'zbekiston_respublikasining_saylangan_prezidenti_shavkat_mirzиеevning_o'zbekiston_respublikasi_konstituciyasi_qabul_qilinganining_24_yilligiga_bag'ishlangan_tantanali_marosimdagi_maruzasi_(2016_yil_7_dekabr))
5. Сатиб-алдиев А.А., Мамуров У.И. Ҳарбий ватанпарварлик тарбияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007. – Б. 7-8.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи // URL – <http://press-service.uz/uz/lists/view/1419>
7. Ўзбекистон – Ватаним маним: Метод.-библиогр. қўлл. -Тошкент: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2009. Б. 9.



ТАЛАБАЛАРНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ БИЛИМ ОЛИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Утаева Ирода Баходировна
Гулистон Давлат Университети
+998941871788
utayeva.iroda@bk.ru

Аннотация. Ушбу мақола ўқув жараёнида мустақил таълим талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш борасидаги психологик муаммоларни ҳал этиш доимий долзарб ҳисобланган масалага бағишланган.

Калит сўзлар: мустақил таълим, психологик хусусиятлар, компетенция, касбий тайёргарлик, халқаро тажриба.

Жаҳон таълим муассасаларида мустақил таълим асосида талабаларнинг грамматик компетенцияларини ривожлантириш креатив модули механизмлари таълим жараёнига татбиқ этилган. АҚШ, Россия, Япония, Корея, Англия ва Германия каби ривожланган давлатларда турли соҳа мутахассисларининг хорижий тилларда ўз касбий соҳаларида эркин мулоқот юрита олишлари, хорижий тилларни ўқитишни касбий компетенциялар орқали ривожлантириш, ўқув дастурлари уйғунлигини шакллантириш, йирик амалий лойиҳаларни амалиётга татбиқ этиш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги ПҚ - 5117 “Ўзбекистон республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ҳам нафақат чет тил мутахассиси балки бошқа соҳа вакиллари ҳам хорижий тил (инглиз тили)ни B1-B2 даражасида билиши кераклиги ушбу қарорда ўз аксини топди[1].

Талабаларнинг мустақил таълимни ташкил этиш ва уларнинг шахсий хусусиятларини ҳисобга олишни тақозо этади. Талабаларнинг олган билимларини ўзларининг ўзлаштириш натижаларига боғлиқ бўлган ва ўқув фаолиятига таъсир қиладиган хусиятлари дидактиканинг яқка ҳолда ёндашиш тамоилларида ўз аксини топади. Бу хусусиятлар шахс ҳолати, жисмоний ва психологик сифатлари: хотирлаш ва тафаккурлаш жараёнларига доир барча хусуситлар, асаб тизимининг хоссалари, характер ва эркинлик даражалари, қобилияти, табиатан талантлилиги кабилардан иборат бўлиши мумкин.

Психологларнинг фикрича, талабалар ўқув фанлари мазмунини ўзлаштиришида фақат фаол мустақил фаолиятгина самарали натижалар беради. Ўқув-тарбия жараёнини яқкалаштириш (индивидуаллаштириш) ишларини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, шахснинг қайси хусусиятларини назарда тутаётганимизга боғлиқ ҳолда яқкалашган ёндашишнинг икки турини фарқлаш мумкин. Уларда талабанинг турли хусусиятлари мажмуасини ёки айрим хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда таълим яқкалаштирилиши мумкин. Бу муаммога доир кўпчилик тадқиқот ишларида олимлар талабаларнинг билим, кўникма, малака даражалари мажмуасидан келиб чиқадиган яқкалаштириш масалаларини ёритганлар. Жумладан, Е.С. Рабуниский, ўзининг тадқиқот ишларида ўқувчиларнинг асосан қуйдаги учта хусусиятлари: 1) ўзлаштириш даражалари; 2) мустақил тафаккурлаш даражалари; 3) ўқишга қизиқиш ҳаракатлари даражаларини эътиборга олган ҳолда уларни ўқиш ва меҳнат қилишга бўлган қобилиятлари негизида ўқув жараёнини яқкалаштиришни кўрсатиб ўтган[37; 65-6].

Педагогика ва психологияга доир адабиётларда шахс психологик жараёнининг (масалан, фазовий тафаккур, хотира) баъзи бир хусусиятларини ўрганишга доир тадқиқот ишларини учратиш мумкин. Бу тадқиқот ишларида кўпинча, қаралиётган муаммодан ташқари ўқув ишларида ҳисобга олиш учун зарур бўлган бошқа шахсий хусусиятлар тўғрисида маълумотлар келтирилмаган.

Бизнингча, олий таълим муассасаларида фанлардан мустақил таълимни ташкил этишда, уларнинг биринчи навбатда ҳисобга олинadиган хусусиятини яъни, танлаш(ажратиш) муҳим аҳамиятга эгадир. Бундай хусусиятлардан бири талабанинг ўзлаштириш (билиш) жараёни сифати билан (масалан, қобилияти), иккинчиси, унинг ҳаракати билан боғлиқ(масалан, қизиқиши) ва бошқалар. Шу сабабли, “ Инглиз тили грамматикаси” ни ўргатиш



учун ишлаб чиқилган мустақил таълимга оид топшириқларни бажаришда талабаларнинг фанга бўлган қизиқишлари муҳим ўрин тутди.

Талабанинг интеллектуал малакасига мос келадиган билимларни мустақил билим олиш қобилияти билан ақлий қобилияти бир-бири билан узвий боғлиқ. Талабаларнинг билимларини, мустақил билим олиш қобилиятини ақлий меҳнат малакалари ёки ўқув малакалари деб ҳам аташ мумкин. Талабаларнинг ўқув малакалари ўқув материаллари билан мустақил ишлаш жараёнида ҳосил бўлади. Бошқача айтганда, ўқув малакалари ўқув материалларини қабул қилиш, қайта ишлаш, унинг муҳим жиҳатларини ажратиш, яъни ўзлаштирган билимларни аввалгилари билан боғлаш, ўқув билимларини умумлаштириш, такрорлаш ва уларни амалда тадбиқ қилган ҳолда масалалар ҳал қилишда эғалланади. Шундай қилиб, ўқув малакалари талабаларнинг таълим жараёнидаги барча ўқув-билиш фаолиятлари билан боғлиқдир. Олий таълим муассасаси талабаларининг мустақил таълим олишидан асосий мақсади ўз касбий педагогик малакасини ошириш, касбий фаолиятида юқори ютуқларга эришишдан иборат. Юқоридаги мақсад ва вазифалардан келиб чиқиб, олий таълим муассасалари олдида турган энг долзарб вазифа талабаларини пассив истеъ-молчилардан фаол яратувчига айлантириш, муаммони шакллантириш ва уни ҳал қилиш усуллари таҳлил қилиш, мақбул натижаларни топиш ва унинг тўғрилигини исботлашга қодир малакали мутахассисни етиштириб чиқаришдир. Бироқ, бу муаммони ҳал қилиш фақат битирув шаклида маълумотни ўқитувчилардан талабага ўтказиш йўли билан амалга ошириш мумкин эмас.

А.О.Рижанова Дистервегнинг ғояларини қуйидагича тасвирлайди: А.Дистервег ўқувчиларни ақлий кучларини ривожлантириш ғоясини кўриб чиқиб, шуни таъкидлаган: “ривожланиш ва таълим ҳеч бир инсонга берилиши ва етказилиши мумкин эмас. Ҳар ким бунга шахсий фаолияти билан эришиши керак. Инсон ўзининг мустақил йўл билан эғалла-магани - уни ҳисобланмайди” деб фикр билдирган [2]. Буюк мутафаккиримиз Абдулла Авлонийнинг фикрича, - «Фикр тарбияси энг керакли, кўп замонлардан тақдир(орзу) қилиб келинган, муаллимларнинг диққатларига суялган ва виждонларига юкланган муқаддас бир вазифадир. Фикр инсонни шарофатлик, ғайратлик бўлишига сабаб бўлур»- деб ёзади ўзининг «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» асарида. Яна шу асарида бадан тарбияси билан бир қаторда фикр тарбиясига ҳам алоҳида аҳамият беради. Унинг таъкидлашича, фикр тарбияси “ муаллимнинг ёрдамига сўнг даражада муҳтождир” ва инсон ҳаётида муҳим аҳамиятга эга: “Фикр агар яхши тарбият топса, Ханжар олмосдан бўлур ўткур. Фикрнинг ойнаси олурса занг, Руҳи равшан замир ўлур бенур” деб айтиб ўтганлар [3].

Шундай қилиб, таълим мустақиллигининг асосий хусусияти уни ўқитишнинг ички мотивацияси билан белгиланади, деб ҳисоблаш мумкин. Бироқ, бу хусусият ўқувчиларнинг билиш мустақиллигини ривожлантиришнинг ҳаракатлантирувчи кучларини аниқлаш учун етарли эмас, чунки у ҳам юқорида таъкидланганидек, мустақил таълим олиш моҳиятини белгилайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги ПҚ – 5117 “Ўзбекистон республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
2. А.О.Рижанова Теория и практика социального воспитания А. Дистервега. Науки об образовании 2007 йил, 34-35 б.
3. Абдулла Авлоний «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» Ziyo.uz// 2012 йил.

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(10-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000